

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	8
1.1. Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'zni va ahamiyati.....	8
1.2. Ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	16
1.3. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	26
I bob bo'yicha xulosa.....	40
II BOB. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyalashtirish omillari va usullari.....	41
2.1. O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik rivojlanishining hozirgi holati tahlili.....	41
2.2. Investitsiyalar, kichik biznes, o'rta sinfning o'zaro bog'liqlikda va hamkorlikda iqtisodiy rivojlanishi va uning omillari.....	50
2.3. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat budjeti va tijorat banklari kreditlari oshib borishi hamda ularning tahlili.....	60
II bob bo'yicha xulosa.....	70
III BOB. Ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va uning yo'nalishlari.....	71
3.1. Kichik biznes sohasida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	71
3.2. Ijtimoiy sherikchilikning jamiyat ahamiyatiga molik loyihalarini monitoring qilish yo'nalishlari.....	78
III bob bo'yicha xulosa.....	88
Xulosa va takliflar.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar.....	94

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Ijtimoiy soha – bu jamiyatning faolligini va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini ifoda etuvchi harakatlar majmuidir. Uning rivoji aholi turmush tarzi sifatini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab aytganidek, "Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi".¹

Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakat ijtimoiy farovonligini ta'minlash, aholining umumiy bandlik darajasi va daromadlarini oshirish, ijtimoiy muammolarning yechimiga yangicha yondashishda tadbirkorlik sohasi asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa tadbirkorlikning yangi ko'rinishi, ya'ni ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat hayotiga kirib borishi, nodavlat-notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishini taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi AQSH, Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida ijtimoiy muammolarga yangicha yechim qidirish bilan shug'ullanuvchilar va siyosatshunoslar orasida eng qaynoq mavzuga aylanib ulgurgan. Ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda yordamga muhtoj qatlamlar va ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan sohalarga o'zining tashabbuskorlik g'oyalari, innovatsion yechimlari bilan keng jalb qilingan iqtisodiy faoliyatdir. Aholining turmush sifati darajasi bevosita ijtimoiy tadbirkorlik bilan bo'g'liq ekan, tadbirkorlikning ijtimoiy yo'naltirilgan ushbu sohasini o'rganish hamda rivojlantirish davlat va ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, „Hozir har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faoliyatini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz taqdiriga muvofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi

¹ "O'zR Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi – "Turkiston" gazetasi – 16.01.2016 yil, № 5, 5-bet.

xarakterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak “.²

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy muammolarga innovatsion yechim topish, ijtimoiy himoyada tadbirkorlik sub'yektlari va tijorat banklarining faolligini oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, tadbirkorlik foydasini ijtimoiy samaraga yo'naltirish kabi tadbirlarda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Mazkur dissertatsiya ishining o'rganish *ob'yekti* ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi. Uning *predmeti* esa ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillari hamda ushbu sohani moliyalashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasi ishining *asosiy maqsadi* bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bu tarmoqni moliyalashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu asosiy maqsadga muvofiq quyidagi *vazifalar* belgilangan:

- Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish;
- Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyalashtirishning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va undan O'zbekiston iqtisodiyotini takomillashtirish yo'lida foydalanish bo'yicha kerakli takliflar berish;
- Ijtimoiy tadbirkorlikning investitsiyalar, kichik biznes, o'rta sinfning o'zaro bog'liqlikda va hamkorlikdagi iqtisodiy rivojlanishini hamda uning omillarini ilmiy asoslab berish;
- Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat budjeti va tijorat banklari kreditlari oshib borishini tahlil qilish;

² Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011. – 89-bet.

- Kichik biznes sohasida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab olish;
- Ijtimoiy sherikchilikning jamiyat ahamiyatiga molik loyihalarini monitoring qilish yo'nalishlarini o'rganish va tahlil qilish.

Tadqiqotning asosiy masalalari. Magistrlik dissertatsiyasi ishining *asosiy masalalari* quyidagicha:

- Ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha o'zbek va xorijiy adabiyotlar o'rganildi;
- Tadbirkorlik, ushbu tarmoq tarkibiga kiruvchi ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy tadbirkor, ijtimoiy korxona tushunchalarining nazariy tavsiflari berilib, ular bo'yicha umumiy xulosalar keltirildi;
- Ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari va istiqbollari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi;
- Kichik biznes sohasida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi;
- Ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha keltirilgan barcha ma'lumotlarning umumiy xulosasi bayon qilindi va ushbu sohaga oid amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Magistrlik dissertatsiya ishining predmetini tadqiq qilishda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha nazariy ma'lumotlar va statistik materiallar, tijorat banklarining yillik hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanmalari, internet tarmog'i ma'lumotlari hamda ilmiy-ommabop jurnal va ro'znomalarda chop etilgan maqolalardan foydalanildi. Xususan, xorijiy manbalardan J. Deforney va Nissonslarning Yevropada ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalariga bag'ishlangan asari, Dennis R. Young va Mary Clark Grinsfelderlarning ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishga oid tadqiqotlari, Jerr Boschee va Jim McClurglarning tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkorlikning farqli jihatlarini yoritilgan ilmiy ishlari, o'zbek olimlari va tadqiqotchilaridan S. G'ulomov, M. Sharifxo'jayev, A. O'lmasov, A. Vahobov, T.

Do'stjonov, S. Salayev, X. Shodiyevlarning tadbirkorlik va moliyalashtirishga oid darslik va ilmiy qo'llanmalar hamda Y. To'rayev, D. Junaydullayev, B. G'ayibnazarov, D. Rustamova, U. Rayxanovlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.³

Tadqiqotda qo'llanilgan metodika tavsifi. Ilmiy izlanishning nazariy metodik asoslarini xorijiy va o'zbek iqtisodchi olimlarning ijtimoiy tadbirkorlik va uni moliyalash sohasiga doir asarlari tashkil etadi. Barcha ma'lumotlar asosida magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi qiyosli taqqoslash metodi, tizimli yondashuv metodi hamda analiz va sintez metodlari yordamida keng tarzda yoritib berildi. Ilmiy tadqiqotning olib borilishi kompleks-statistik qiyosiy solishtirish usullariga hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, fakt va raqamlarni falsafiy tahlil qilish borasidagi umuminsoniy tafakkur qoidalariga, insonparvarlik g'oyalariga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasi ishining *nazariy ahamiyati* shundan iboratki, unda keltirilgan fikr-

³ Defourny, J. & Nyssens, M. (eds.) (2008) "Social Enterprise in Europe: Recent Trends and Developments", *Working Papers Series*, no. 08/01, Liège: EMES European Research Network. pp. 4-18, 34. https://orbi.ulg.ac.be/.../1/WP_08_01_SE_WEB.pdf; Dennis R. Young and Mary Clark Grinsfelder "Social entrepreneurship and the financing of third sector organizations", - *Journal of Public Affairs Education*, №17(4), 2009; pp. 543-550. www.naspaa.org/o6_YoungGrinsfelder; "Towards a Better Understanding of Social Entrepreneurship. Some Important Distinctions", Copyright 2003, Jerr Boschee and Jim McClurg. pp 2-7 <https://www.law.berkeley.edu/php.../fileDL.php?fID>; Eight Principles for Non-profit Entrepreneurs by Jerr Boschee. <http://www.socialent.org/pdfs/8BasicPrinciples.pdf>; "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti" (Akademiklar S. G'ulomov va M. Sharifxo'jayevlarning umumiy tahriri ostida). – T.: "O'qituvchi", 2000 yil; Do'stjonov T., Salayev S. "Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari" – T.: "Iqtisod-Moliya", 2006 yil; A. O'lmasov, A.Vahobov – "Iqtisodiy nazariyasi", 2014 yil, 380-383, 394-397, 414-416 betlar; Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev – "Iqtisodiyot nazariyasi", Toshkent – "Moliya", 2002 yil, 371-374 betlar; X. Shodiyev "Moliya statistikasi". – Toshkent-2010, 104-bet; Y. To'rayev "Xorazm viloyati banklari: Bunyodkorlik va taraqqiyot yo'lidagi izchillik" – "Bozor, Pul va Kredit" ilmiy-amaliy jurnal, №3, 2013 y., 17-19, 26-27 betlar; S.K. Salayev, B.U. Tadjiev "Kichik biznesning rivojlanishida Hindiston tajribasi" – "Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, №2, 2015 yil; 6-7 betlar; Rustamova D.D. "Inson kapitaliga investitsiyalar va ularning xususiyatlari" – "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnal, №7, 2014 yil. 33-36 betlar; Rayxanov U.A. "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvida o'rta sinfning roli" – "Iqtisod va moliya", №4, 2013 y., 20, 21, 24, 25 – betlar; S. Gulyamov, B. G'ayibnazarov "Intellectual salohiyatdan samarali foydalanish – taraqqiyot tayanchi" – "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №1, 2014 y., 4, 5- betlar.

mulohazalar, iqtisodiy ma'lumotlar, xulosa va takliflar iqtisodiyot yo'nalish bo'yicha oliy o'quv yurtlari talabalari va tadqiqotchilarning ijtimoiy tadbirkorlik, shuningdek, davlat va tijorat banklarining ushbu sohani moliyalash mexanizmlari, ijtimoiy farovonlik omillari va istiqbolli ko'rsatkichlari mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot ishining *amaliy ahamiyati* shundan iboratki, undagi amaliy taklif va xulosalar kelajakda tadbirkorlikning ijtimoiylashuvi, tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ijtimoiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, tadbirkorlarning tashabbuskorlik, innovatorlik qobiliyatlaridan tashqari, sahovatpeshalik, ijtimoiy muammolarga jonkuyarlik xususiyatlarini shakllantirish kabi tadbirlarning bajarilishida dasturulamal sifatida qo'llanishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining *ilmiy yangiligi* ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga oid nazariy manbalarni o'rganish, tahlil qilish, ushbu sohaga taalluqli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ilmiy jihatdan asoslash hisoblanadi. Ular bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- ijtimoiy muammolarning yechimiga yangicha yondashish;
- ijtimoiy qatlamda tadbirkorlarning faolligini oshirish;
- tadbirkorlikning ijtimoiylashuvini moliyaviy ta'minlashda davlat budjetidan tashqari mamlakatimiz tijorat banklarining imtiyozli kreditlash tizimi va tadbirkorlik foydasini ushbu sohaga yo'naltirish;
- ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi ishi 100 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch bob, har bir bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining birinchi bobida ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning ahamiyati, shakllanish tarixi, ijtimoiy tadbirkorlik tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari, uning tadbirkorlik va biznes sohasi bilan o'xshash va farqli tomonlari, ijtimoiy tadbirkorlik korxonalarini moliyaviy qo'llab-

quvvatlash mexanizmining rivojlangan mamlakatlar tajribalari nazariy va statistik ma'lumotlar yordamida asoslab berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik rivojlanishining hozirgi holati, ijtimoiy tadbirkorlikning taraqqiy etishida ijtimoiy investitsiyalar, davlat budjeti va tijorat banklari kredit tizimining roli, o'rta sinf va inson kapitalining o'zaro bog'liqligi asosida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy manbalar asosida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Xorazm viloyati tumanlarida ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va tadbirkorlikning ijtimoiylashuvini jadallashtirishda viloyat tijorat banklarining o'rni, ular tomonidan yosh tadbirkor, oilaviy tadbirkor, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ajratilgan kreditlarning dinamik tahlili berilib, keltirilgan barcha izohlar umumlashtirilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining uchinchi bobida kichik biznes sohasida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish yo'nalishlari, ushbu sohadan ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda qo'llash usullarining ayrim mamlakatlar tajribalari, kichik biznesning tarmoqlardagi ulushi va uning ijtimoiylashish zaruratini ifodalovchi fikrlar keltirilgan. Shuningdek, mamlakatimizda NNTlarini monitoring qilishning asosiy yo'nalishlari, bosqichlari va davlat tomonidan "uchinchi sektor"ga ajratilgan mablag'larning dinamik tahlili bayon qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining xulosa va takliflar qismida ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini yanada oshirish va moliyaviy-iqtisodiy rag'batlantirishga doir barcha ma'lumotlardan olingan umumiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

I BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'рни va ahamiyati

Tadbirkorlik konsepsiyasi tijorat sektorida uzoq tarixga ega bo'lsada, hozirgi davrlarda u *ijtimoiy tadbirkorlik* (yoki uchinchi sektor) tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi paytda ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi AQSH, Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida ijtimoiy muammolarga yangicha yechim qidirish bilan shug'ullanuvchilar va siyosatshunoslar orasida eng qaynoq mavzuga aylanmoqda. Lekin hanuzgacha ijtimoiy tadbirkorlikning tavsifi hamda uning biznes sektori bilan o'xshashlik va farqlari bo'yicha konseptual aniqlikka erishilgani yo'q. Darhaqiqat, tadqiqotchi Dis va Andersonlar ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasi ikkita qarama-qarshi maktab g'oyalarida namoyon bo'lishi borasida baxs-munozaralar olib boradilar. Bu g'oyalar quyidagilar:

- ijtimoiy maqsadlarni (foyda keltirmaydilagan tashkilotlarning tijorat faoliyatiga taalluqli) ta'minlashga yo'naltirilgan kirim bozorini yaratish g'oyasi;
- ijtimoiy o'zgarishlar uchun innovatsion tashabbuslar yaratish g'oyasi.

Ushbu fikrlardan oxirgisi umumiy g'oya hisoblanadi va Piter F. Druker, Josef Shumpeter, Jan-Batist Say kabi iqtisodchi olimlarning fikrlaridan tashkil topgan. Say (1803 yil) ishni bajarishning yangi va yaxshiroq yo'llarini topish orqali iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi (rag'batlantiruvchi) korxona xodimi bilan fransuz termini hisoblangan tadbirkor (tashabbuskor) ning o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligiga ishongan.⁴ Shumpeter (1934 yil) tadbirkorlikni ishlab chiqarish vositalarining "yangi konbinatsiyalar"ini yuzaga chiqaruvchi jarayon sifatida tavsiflagan. Shumpeterning bosh g'oyasi innovatsiya, yangi turdagi iqtisodiy oziq-ovqatlar va xizmatlar, ularni ishlab chiqarishning yangicha usuli, yangi bozorlarni ochish, xomashyo materiallarining yangi manbalarini

⁴ Martin, R. L., & Osberg, S. (2007). Social entrepreneurship: The case for definition. Stanford social innovation review, 5(2), 28-39.

rivojlantirish yoki yangicha tashkiliy struktura yaratish kabi bir qator maqsadlarga asoslangan. Druker (1995 yil) tadbirkorlarga o'zgarishlarni izlovchi, bu o'zgarishlarning huquqiy asoslarini o'z zimmasiga oluvchi va ulardan imkoniyat sifatida foydalanuvchi shaxslar sifatida ta'rif bergan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda tadbirkorlikning ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan sohasi - ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beramiz:

Ijtimoiy tadbirkorlik – bu ijtimoiy muammolarning innovatsion yechimini olib borish jarayoni.⁵ Shuningdek, *ijtimoiy tadbirkorlik* – bu jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tadbirkorlik orqali bartaraf etish faoliyati.

Ijtimoiy tadbirkor – ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan va ularga innovatsion yechim topadigan tashabbuskor, tadbirkor shaxs. Aksariyat tasniflarga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy qiymatni yaratish va qo'llab-quvvatlash vazifasini ham o'z zimmasiga oladilar. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan sub'yektlar nodavlat va notijorat sohalariga tegishli bo'lgan hamda turli tashkilotlarda amal qilayotgan tadbirkorlik faoliyatining bir qancha tasnifiy turlarining ro'yxatini tuzib chiqqanlar. Xususan, katta va kichik, eski va yangi, diniy va dunyoviy, foydali, foydasiz va aralash kabi tasniflarni keltirib o'tishimiz mumkin.⁶ Biznes olamidagi tadbirkorlar odatda foyda va daromadning hisob-kitobini yuritishadi, ammo ijtimoiy tadbirkorlik sub'yektlari biznesning jamiyatga ijobiy foydasini ham inobatga oladilar. Ijtimoiy tadbirkorlik o'ziga xos tarzda ijtimoiy, madaniy va ekologik umumiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi va odatda, ko'ngilli va nodavlat sektorlar bilan birgalikda ish ko'radi.⁷ Dunyo bo'yicha yoki xalqaro miqyosda amaliyotda qo'llaniladigan ijtimoiy tadbirkorlik *xalqaro ijtimoiy tadbirkorlik* deb yuritiladi.⁸

⁵ The New Heros, What is Social Entrepreneurship, Oregon Public Broadcasting, 2005

⁶ "The Meaning of Social Entrepreneurship," J. Gregory Dees, 1998, rev 2001 "The Meaning of Social Entrepreneurship". CASE at Duke. Retrieved 2013-05-03

⁷ Thompson, J.L., The World of the Social Entrepreneur, The International Journal of Public Sector Management, 15(4/5), 2002, p.413

⁸ Munoz, J.M.2010.International Social Entrepreneurship : Pathways to Personal and Corporate Impact. New York: Business Expert Press. <http://www.businessexpertpress.com/books/international-social-entrepreneurship>

Hozirgi vaqtda aynan kimlar ijtimoiy tadbirkorlik sub'yektlari bo'la oladilar? Bu haqidagi baxs-munozaralar hanuzgacha davom etmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p sohalar mavjud bo'lishiga qaramay, haligacha ushbu terminning aniq izohi qabul qilinmagan. Sahovatpeshalar, ijtimoiy sohada bandlar, atrof-muhit va ekologiya muammosi bilan shug'ullanuvchilar va boshqa ijtimoiy maqsadlarda faoliyat ko'rsatayotganlar ijtimoiy tadbirkorlik sub'yektlari sifatida e'tirof etiladi. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining aniq ta'rifini bilish uchun, eng avvalo, uning ijtimoiy hayotdagi o'rinini va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyatini o'rganish lozim (1-ilova).

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyatga tadbirkorlikning ijtimoiy qatlam uchun foyda keltiruvchi alternativ formasini taklif etdi. Ijtimoiy kapital (sarmoya) ijtimoiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltiriladigan bo'lsa, tadbirkorlik ijtimoiy harakatga aylanadi. Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat ijtimoiy muammolar bilan, balki ijtimoiy sohalarning natijasi va ularni tushunib yetish bilan ham bog'liqdir.

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining tarixi. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi Pokistonlik Aksher Hamid Xon va Bangladeshlik Muhammad Yunus kabi atoqli innovatorlar nomi bilan aloqador. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasida faoliyat olib borayotgan mashhur zamondoshimiz Muhammad Yunus Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining juda ko'plab yirik mamlakatlaridagi innovatorlarni mikrokreditlar bilan ta'minlash g'oyasiga boshchilik qilgan Gramin Bankining asoschisidir.⁹ U "mikrokredit otasi" sifatida nom qozongan va global tashkilotlardagi millionlab insonlarga kichik miqdordagi qarzlarni olish imkoniyatini beruvchi mikromoliyalashtirish revolyutsiyasini o'rnatgan. Ijtimoiy Tadbirkorlik Dasturiga bergan takliflari va qo'shgan hissasi uchun Muhammad Yunus 2006 yilda Nobel Mukofoti bilan taqdirlangan.¹⁰ Muhammad Yunusning ijtimoiy tadbirkorlik sohasida olib borgan xizmatlari ko'plab mamlakatlar

⁹ Martin, R. L., & Osberg, S. (2007). Social entrepreneurship: The case for definition. Stanford social innovation review, 5(2), 28-39.

¹⁰ Bangladesh News." Internet Rolls into Bangladesh Villages on a Bike. Web. 21 Apr. 2014. <http://www.asafeworldforwomen.org/global-news/asia/bangladesh/3284-internet-info-ladies.html>.

iqtisodchi olimlari tomonidan tan olinmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, Yevropa va Janubiy Amerikaning katta mamlakatlarida ham milliy ham hududiy miqyosdagi ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi tadbirkorlik tushunchasidan ajralib turadi, lekin hanzgacha ularning klassik ta'riflarida bir qator o'xshashliklar mavjud. Fransuz iqtisodchisi Jan Batistaning fikricha, yangi g'oyalar bilan tashabbus ko'rsatuvchi insonni biz tadbirkor deya olamiz va u jamiyatga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri bilangina hurmat qozona oladi.¹¹ Shunday bo'lsa ham "tadbirkorlik" va "ijtimoiy tadbirkorlik" o'rtasidagi farq tashabbusning asosiy maqsadi, yo'nalishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy tadbirkorlik klassik tadbirkorlikdan farqli o'laroq, jamiyatning foyda, daromadini emas, uning ijtimoiy sifatlarini kengaytirishga, yaxshilashga harakat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi yangi g'oya emas, ammo bu tushuncha Charlz Lidbiterning "Ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi" ("The Rise of the Social Entrepreneur") nomli maqolasidan so'ng ilmiy tadqiqotchilar va jamiyat orasida ancha mashhur bo'ldi.¹² Ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkor terminlari ilk marotaba 1960-1970 yillarda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llanila boshlandi. Bu terminlar 1980-yillardan boshlab keng qo'llanila boshlandi, 1990 yillarda Ashoka asoschisi Bill Drayton va keyinchalik Charlz Lidbiter kabi bir qator innavatorlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkor tushunchalari nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, bu terminlarni tarixiy misollardan ham topishimiz mumkin. Quyida biz keltirib o'tayotgan bir qator mashhur shaxslarning olib borgan faoliyatlari "ijtimoiy tadbirkorlik"ning hozirgi zamonaviy izohiga misol bo'la oladi. Ular quyidagilar:

¹¹ Martin, R. L., & Osberg, S. (2007). Social entrepreneurship: The case for definition. Stanford social innovation review, 5(2), 28-39.

¹²Wee-Liang, Williams, John, and Tan, Teck-Meng. "Defining the 'Social' in 'Social Entrepreneurship': Altruism and Entrepreneurship." The International Entrepreneurship and Management Journal. no. 3 (2005): 353-365.

- Florens Naytengl, ilk hamshiralik maktadiga asos solgan va zamonaviy hamshiralik amaliyotini rivojlantirgan davlat arbobi;
- Robert Oven, kooperativ harakat asoschisi;
- Vinoba Bhave, Hindistonda aholiga yer uchastkalarini berish g'oyasi va harakati asoschisi.

XIX-XX asrlar davomida bir qator omadli ijtimoiy tadbirkorlar fuqarolik, boshqaruv va biznes olamida samarali faoliyat olib bordilar. Bunday tashabbuskorlar farovonlik, ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash xizmatlari tomonidan taklif etilgan g'oyalarni qo'llab-quvvatladilar.

Ijtimoiy tadbirkorlikka ta'sir qiluvchi omillar va uning tamoyillari. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarga ko'ra ijtimoiy tadbirkorlikning *istiqboli* quyidagi bir qator tashqi va ichki omillarga bog'liq:

- tadbirkorning shaxsiy xislatlari;
- tadbirkorlikka oid xulq-atvor motivatsiyasi (shakllanishi);
- siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlar;
- tadbirkorlikka oid nazariyalarda muammoning qo'yilishi va hal qilish darajasi;
- muvaffaqiyatga erishish uchun talab etiladigan mahorat va qobiliyatlarning mavjudlik darajasi va boshqalar.

Ijtimoiy tadbirkorlik davlat, notijorat va biznes sohalarini birlashtirish uchun zarur. Ijtimoiy tadbirkorlikka oid maxsus adabiyotlarda olimlar ushbu soha vakillarining bir qator umumiy qobiliyatlarini ta'kidlab o'tishgan.¹³ Ular quyidagilar:

- muammoni hal qilish qobiliyati;
- kashfiyotchilik va kreativlik;
- tavakkalchilikni tahlil qilish;
- imkoniyatlarni aniqlash;
- resurslarni harakatga keltirish;
- hamkorlikni amalga oshirish
- tirishqoqlik va boshqalar.

¹³ Bu yerda "qobiliyat" tushunchasi "imkoniyat", "salohiyat" ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin.

O'zining 20 yillik umrini AQSH va boshqa xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy tadbirkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlagan davlat arbobi, AQSH dagi Ijtimoiy tadbirkorlik Institutining asoschisi va ijrochi direktori Jer Bush ijtimoiy tadbirkorlarga *"Ijtimoiy tadbirkorlar – insonlarni qalb og'riqlaridan himoya qiluvchi ixtirochilardir"*¹⁴ deya ta'rif bergan va notijorat tashkilotlarida ijtimoiy tadbirkorlikning samarali olib borilishini ta'minlovchi 8 ta asosiy tamoyillarni¹⁵ keltirib o'tgan. Ular quyidagilar:

1. Daromad to'plashni pirovard maqsadga aylantirish;
2. Ijtimoiy tadbirkorlikning to'laqonli a'zosiga aylanish;
3. Muvaffaqiyatning dastlabki asosi bo'lgan biznes korxonasini ochish;
4. O'zaro aloqadorlikdagi biznes faoliyatini yuritish;
5. Mulohazali qaror qabul qilish va foydani ijtimoiy samaraga yo'naltirish;
6. Innovator, tadbirkor va professional menejerlar o'rtasidagi farqni anglab yetish;
7. Maqsadga erishish yo'lida "Notijorat" ma'daniyatiga erishish;
8. Nuh payg'ambarning qonuniga mantiqan amal qilish.¹⁶

Ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy negizi. Ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy va moliyaviy tuzilmasi turg'un emas. Bu tarmoq boshqa manbalardan pul jamg'aradi, chunki uning faoliyati davlat, tarmoqlar va sohalar tomonidan boshqariladi. Tadbirkorlar esa turli tarmoqlardagi moliyaviy resurslarni qo'lga kiritishlari va ulardan ijtimoiy maqsadlar yo'lida samarali foydalanishlari lozim bo'ladi. Nisbiy ko'rsatkichlar shuni isbotlaydiki, ijtimoiy tadbirkorlikning daromad manbalari har bir mamlakatda turlicha (1.1.1-jadval).

¹⁴ <http://www.socialent.org>

¹⁵ *Eight Principles for Non-profit Entrepreneurs* by Jerr Boschee.
<http://www.socialent.org/pdfs/8BasicPrinciples.pdf>

¹⁶ (Bibliyada) Nuh Payg'ambar Odam Atoning o'ninchi vakili, qabila boshlig'i bo'lgan, o'z oilasini va Yer kurrasidagi jamiyki jonzoatlarni qutqarib qolish uchun, suv toshqini paytida oilasi va barcha hayvonlarning nusxasi ortilgan katta Nuh Kemasini yasagan.

1.1.1-jadval.

2004 yilda Ijtimoiy tadbirkorlikning daromad manbalari¹⁷

Mamlakat	Ish haqi to'lovlari	Hukumat	Hayr-ehson
Meksika	85%	5%	3%
Shvedsariya	62%	29%	9%
AQSH	57%	31%	13%
Yaponiya	52%	45%	3%
Fransiya	35%	58%	8%
Buyuk Britaniya	45%	47%	9%
Janubiy Afrika	32%	44%	24%

Bu taqqoslama ko'rsatkichlarni alohida davlat misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQSH misolida ijtimoiy tadbirkorlikning alohida sohalari bo'yicha daromad manbalarini tahlil qilib chiqamiz (1.1.2-jadval).

1.1.2-jadval.

2008 yilda AQSH notijorat tarmoqlarining daromad manbalari¹⁸

Ijtimoiy tarmoqlar	Ish haqi to'lovlari	Shaxsiy mablag'	Davlat grandlari	Investitsion daromad	Boshqalar
Barchasi	70.3%	12.3%	9%	5.4%	2.9%
San'at/Ma'daniyat	31.3%	40.8%	12.5%	7.7%	7.7%
Ta'lim	55.9%	14.9%	11.9%	14.1%	3.1%
Atrof muhit	25.1%	48%	14.1%	5.8%	6.9%
Sog'liqni saqlash	87.5%	4%	3.4%	2.9%	2.2%
Maishiy xizmatlar	53.1%	16.4%	22.7%	2.9%	4.9%
Xalqaro xizmatlar	7.6%	67.3%	21.9%	2.2%	1%

¹⁷ Dennis R. Young and Mary Clark Grinsfelder "Social entrepreneurship and the financing of third sector organizations", - Journal of Public Affairs Education, №17(4), 2009; pp 549.
www.naspaa.org/o6_YoungGrinsfelder

¹⁸ O'sha manba, 550-bet.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSHda asosan sog'liqni saqlash tizimiga katta e'tibor berilgan. Bu sohada ishlovchi katta malakali xodim va tajribali mutaxassislarga beriladigan to'lovlar (oylik maoshlari) ham boshqa tarmoqlarga qaraganda ancha yuqori ekanligini raqamli ko'rsatkichlar isbotlab turibdi. AQSH va G'arbiy Yevropada ijtimoiy yo'naltirilgan korxonalarni turli xil manbalar hisobiga moliyaviy ta'minlash 1980-1990 yillardan boshlangan. AQSHdagi notijorat tashkilotlari tomonidan ishlab topilgan daromadlarning ulushi 1980 yillarda sezilarli darajada oshdi. Iqtisodiy nazariyalarda ta'kidlanganidek, daromad to'plash strategiyasi orqali ijtimoiy korxonalar tashkil topdi. Yaqin yillardan beri maxsus ta'lim dasturlari va grandlar asosida individual (yakka) ijtimoiy tadbirkorni moliyaviy ta'minlash darajasi ortib bormoqda.

Shu o'rinda *ijtimoiy biznes* tushunchasiga ham qisqacha izoh berib o'tsak. **Ijtimoiy biznes** – bu ijtimoiy muammolarni tez hamda tejamli tarzda hal etishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Bu tushuncha termin sifatida ilk marotaba Nobel Mukofoti lauriyati, professor Muhammad Yunus tomonidan qo'llanilgan va uning “Dunyoni kambag'alliksiz yaratish”, “Ijtimoiy biznes, kapitalizmning kelajagi va ijtimoiy biznesni yaratish”, “Insoniyatning ehtiyojlariga xizmat qiluvchi kapitalizmning yangi turi” va boshqa shu kabi bir qator kitoblarida ijtimoiy biznes terminiga izohlar berilgan. Bu asarlarida Muhammad Yunus Ijtimoiy biznesni ijtimoiy muammolarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida talqin etadi. Bu soha o'zini o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlaydi. Biznesdan tushgan foyda qaytadan ushbu sohaga yoki boshqa bir ijtimoiy biznesni boshlash uchun investitsiya qilinadi. Investitsiyalar odatda ijtimoiy himoyani kuchaytirish, kompaniyalar faoliyatini kengaytirish, ijtimoiy missiyalarga qaratilgan mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida qo'yiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tadbirkorlik tadbirkorlikning hali to'liq aks etmagan shakli bo'lib, jamiyatda yordamga muhtoj qatlamlar va ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan sohalarga o'zining tashabbuskorlik g'oyalari, innovatsion yechimlari bilan keng jalb qilingan iqtisodiy faoliyatdir. Ushbu tarmoqning rivoji jamiyat farovonligini ta'minlaydi.

1.2. Ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy muhit – insonning shakllanishi, yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan moddiy, ma'naviy va ijtimoiy shart-sharoitlardir.¹⁹ Shunga muvofiq, *ijtimoiy faollik* – sub'yektning jamiyat hayotida ongli tarzda mustaqil ishtirok etishi, ma'lum ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati hisoblanadi.²⁰ Ijtimoiy tadbirkor esa yuqoridagi ikkala tushunchani mexanizm sifatida siklli aylanishini ta'minlaydigan iqtisodiy motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Bunga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlik sub'yekti ijtimoiy muhit, undagi jamiyat farovonligiga hissa qo'shuvchi sohalar shart-sharoitlarini yaxshilashning yangi usullarini ishlab chiqadi, bunda u tadbirkorlik tamoyillaridan foydalanadi va bu yo'l bilan *o'zaro aloqadorlik ijtimoiy-iqtisodiy siklini* yaratadi. Ijtimoiy tadbirkorlikning barqarorligini ta'minlashda ushbu sohani moliyaviy ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Notijorat tashkiloti – huquqiy shaxs, jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin.²¹ Notijorat tashkilotlari sub'yektlarining ijtimoiy qiymatni yaratish maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari, o'z navbatida, ijtimoiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu mavzuga yaqinlashishdan oldin ayrim terminologik tuzatishlar haqida keltirib o'tishni afzal deb topdik.

Ijtimoiy tadbirkor, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxona. Yaqin yaqingacha “Ijtimoiy tadbirkor”, “Ijtimoiy tadbirkorlik” va “Ijtimoiy korxona” tushunchalari bir xil yo'nalishda qo'llanib kelinmoqda edi. Soddalashtirish maqsadida ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy tadbirkorlarning ijtimoiy korxona yaratish bilan bog'liq jarayoni sifatida talqin etilar edi. Shunga qaramay, oxirgi o'n ikki yil

¹⁹ “Falsafa” ensiklopedik lug'at. – T.: 2010 yil, 124-bet.

²⁰ O'sha manba, 126-bet.

²¹ S.Salayev, N.Fayzullayev, J.Atayev, D.Saidov, M.Gulmonov “Tadbirkorlik asoslari”. – Toshkent-2012 y. 174-bet.

ichida ilmiy tadqiqotlarning tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida bu uchala tushunchaning har biri uchun turli xil izohlar va yondashuvlar ishlab chiqildi. Bunday izohlarning aniq tahlilini ushbu rejamiz doirasida ko'rishimiz mumkin, ammo ushbu tushunchalarning ba'zi bir xususiyatlari aniq bir (joriy) yo'nalishga urg'u berish maqsadida alohida ta'kidlab o'tilgan.

“Ijtimoiy tadbirkor” terminiga 1990 yillarning o'rtalaridan buyon Ashoka singari Amerika tashkilotlari va korxonalari tomonidan alohida urg'u berilmoqda (2-ilova). Insonlar faollik, shaxsiy jozibadorlik, innovatsion tajriba kabi bir qator muhim tamoyillar doirasida haqiqiy tadbirkor sifatida ish yuritib turgan bir paytda, bunday tashkilotlar ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan yangi faoliyatni boshlash harakatida bo'lgan shaxslarni tur xil usullar bilan aniqlaydi va ularni moliyaviy ta'minlaydi. AQSH yondashuvi ancha ta'sirli bo'lishiga qaramay, Yevropada, aksincha, ijtimoiy korxonalar korporatsiya yoki assotsiatsiya shakliga aylanmagunicha uning asosan umumiy xususiyatlariga urg'u beriladi.

“Ijtimoiy tadbirkorlik” tushunchasi 1990 yillarning oxirlarida ancha aniq tarzda konsepsiyalashtirildi.²² Konsepsiyalashtirishning ushbu ko'rinishi ijtimoiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy innovatsion jarayonlarga yo'naltirilgan. Shunday bo'lsada, bu konsepsiya turli xil tadqiqotchilar tomonidan juda ham keng mazmunda talqin qilinmoqda va hozirgi kunda ijtimoiy javobgarlikni umumiyashtirish maqsadida ko'ngillilar faoliyati tomonidan o'zgartirilgan keng miqyosdagi tashabbuslar spektrumiga aloqador bo'lmoqda.²³ Ushbu ikkita chegara o'rtasida ko'plab kategoriyalarni aniqlashimiz mumkin: individual tashabbus, notijorat tashkilotlarining yangi faoliyatni yo'lga qo'yishlari, ijtimoiy maqsadlar bilan ijtimoiy-xususiy hamkorlik va h.k. Amerikaliklar ijtimoiy tadbirkorlik deb ta'riflanayotgan “aralash qiymatni yaratish” (ijtimoiy qiymatdan olinadigan foyda) uchun institutsional va huquqiy shakllar orasidan “dog'langan chegara” ga e'tibor qaratish tarafdori bo'lib turgan bir paytda, Yevropaliklar

²² Dees (1998 y.) va EMES Tarmog'i (EMES -1999 y.; 2001 yilda Deforney tomonidan yana rivojlantirildi) tomonidan konsepsiyalashtirilgan.

²³ Nikols "Social entrepreneurship". – 2006

ijtimoiy tadbirkorlik uchinchi sektorda (xususiy, notijorat sektor) asosiy o'ringa ega degan dalillarni ta'kidlashmoqda.

“Ijtimoiy korxona” tushunchasi ilk marotaba konsepsiya sifatida Yevropada (undan biroz vaqt ilgari AQSHda) paydo bo'lgan, bu konsepsiya Italiyada 1990 yildan *“Impresa Sociale”* sarlavhasi ostida nashr qilina boshlangan jurnal yordamida ancha to'liq holatga kelgan. Bir yildan so'ng Italiya Parlamenti yaratgan “Ijtimoiy koperatsiya” ning huquqiy shakllari uchun zarur bo'lgan ixtirochilar tashabbusini aniqlash maqsadida parlament deputatlari tomonidan ushbu konsepsiya ilmiy jamoatchilikka tanishtirildi. Ko'rib turganimizdek, Yevropaning ko'plab boshqa mamlakatlari Ijtimoiy korxonalarga yordam berish maqsadida bir qancha qonunlarni joriy etib kelmoqda. Bunday yondashuvlar asosida EMES Tarmog'i bozor, ijtimoiy siyosat, fuqorolik jamiyati bilan tutashgan Yevropa Ijtimoiy korxonalarining hozirgi holatiga katta ahamiyat bermoqda. Ayniqsa, ushbu uchala soha resurslarining “duragay” (“chatishma”) lariga alohida e'tibor berilmoqda, unga ko'ra, Ijtimoiy korxonalar shaxsiy hadyalar yoki ko'ngillilarning ehsonlarini hamda ijtimoiy maqsadlarga aloqador bo'lgan ijtimoiy subsidiyalardan foydalanuvchilarning oylik maoshlari va sotuvdan keladigan foydani kombinatsiyalashtirish (birlashtirish) yo'llarini aniqlaydi. Albatta, bu yondashuv tashkilotlarning xususiy grantlari darajasini va ijtimoiy subsidiylarni kamaytirish evaziga “daromad to'plash strategiyasi”ni rivojlantirish va bozorga kirib borishni maqsad qilgan notijorat tashkilotlarini ijtimoiy korxona sifatida ta'riflashga asoslangan AQSHning mustahkam tendensiyasidan butunlay farq qiladi.

Yuqoridagi izohlarni umumlashtirgan holda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Ijtimoiy tadbirkorlik (korxona) – bu hayriya maqsadlarini moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan yillik daromad to'plash uchun nodavlat-notijorat tashkilotining daromad yaratish biznesi yoki strategiyasini o'z zimmasiga olish bilan bog'liq faoliyatdir. *“Yaratiladigan daromad”* mahsulotlar, xizmatlar va

imtiyozlarni to'g'ridan to'g'ri ayirboshlash evaziga qo'lga kiritiladigan to'lovlarni o'z ichiga oladi.²⁴

Yigirma yillar oldin nodavlat, notijorat tashkilotlarining faoliyatini tadbirkorlik usuli yordamida olib borish g'oyasi ushbu sektordagi ko'plab odamlar tomonidan qoralangandi. Maqsad va mablag'ni birlashtirish fikri ular tomonidan qattiq tanqidga va nafratga uchragandi. Ammo hozirgi kunda "Ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasi keng miqyosda tarqalmoqda.

Britaniyaning sobiq Bosh Ministri Toni Bler (Entoni Charlz Linton Bler: 1997-2007) Angliyadagi ixtiyoriy sektorlarning qiyofasi o'zgarishiga sababchi bo'lgan "Ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasining kelib chiqish usuliga yuqori baho bergan, shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlaridagi yuqori ma'muriy organlar mustaqil sektorlarning dasturlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun hissadorlik tashkilotlari va hukumatni jalb qilishda "Ijtimoiy tadbirkorlik" yangi va o'zgacha usul topganligini ta'kidlashmoqda. Ularning ikkalasi ham nodavlat, notijorat tashkilotlarining zukkoligini yuqori baholashga haqli, ammo ularning bu bahosi tadbirkorlik uchun hech bir qiymatga ega emas.

Muammoning mohiyati shundan iboratki, *nodavlat, notijorat tashkilotlari yillik daromad to'planishiga sababchi bo'lmaganlaricha ularning faoliyati tadbirkorlik faoliyati deb qaralmaydi*. Ular balki yaxshi va ajoyib narsalarni qilishar, yangi va zavqli dasturlar yaratishar, ammo *bu innovatsiya, tadbirkorlik emas*.

Nima uchun bu tafovutlar muhim?! Chunki faqatgina yillik daromad to'plash nodavlat, notijorat tashkilotlarining barqarorligini va mustaqilligini ta'minlaydi. Innovatsiya esa 1970-1980 yillardan beri ularning rivojlanishi uchun faqatgina boshlang'ich qurol bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Yangi dastur bilan ta'minlash, loyihalashtirish, rivojlantirish, bular barchasi bir xil holat, ammo ularning faoliyatini hissadorlik tashkilotlari va ijtimoiy sektorlarning subsidiyalarisiz (yordamlarisiz) tutib turish, bu umuman boshqa holat. Nodavlat tashkilotlarining zukko menejerlari va hukumat a'zolari shuni anglab yetishdiki, ularning o'zaro

²⁴ *Social Enterprise Alliance* <http://www.se-alliance.org>

bog'liqligi barqaror faoliyat olib borishni kafolatlaydi. Bu aloqadorlik (hamkorlik) esa tabiiy ravishda tadbirkorlik olamiga yetaklaydi.

Shunday bo'lsada, ko'pchilik menejerlar va homiyarlar o'zlarining asarlarini va broshuralarini talqin qilishda eski metodologiyalardan va eski izohlardan foydalanishmoqda. Bu esa tadbirkorlikka asoslangan ushbu sektordagi deyarli barcha nazariyalar va faoliyatlar yangi degan qarashlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda.

Ko'pdan beri nodavlat, notijorat sektori (uchinchi sektor) tadbirkorlik statusini talab qilishni boshlagan. Shuning uchun ham ayrim tafovutlarni izohlab o'tishni muhim deb topdik.

1. “Tadbirkorlik” va “Ijtimoiy tadbirkorlik” o'rtasidagi farqlar. Vebsterning izohli lug'atiga ko'ra, *Tadbirkor* bu *”tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va biznes korxonasining tavakkalchiligini o'z zimmasiga oluvchi shaxsdir”*. Ensiklopedik jurnal asoschisi Norm Brodskiy 1998 yilda ushbu izohni kengaytiradi. U tadbirkorlarni quyidagicha izohlaydi: *”G'oya yoki prototip (timsol) dan boshqa deyarli hech nima bilan iqtisodiy faoliyatni boshlaydigan tadbirkorlarda o'z-o'zini moliyaviy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan va daromad to'plashga imkon beradigan biznesni yuritish qobiliyati mavjud bo'ladi”*.

Biznesni muvaffaqiyatli boshqarish shuni anglatadiki, uning faoliyati grantlar yoki subsidiyalar orqali emas, balki o'zi to'plagan daromadlari orqali davom ettiriladi, kengaytiriladi va istiqbolli rejalarga asoslanadi.

”Ijtimoiy tadbirkorlik” ning hozirgi eng oddiy izohi 1998 yilda Stanford Universiteti professori J. Grigoriy Dis tomonidan ishlab chiqilgan. Ammo uning qo'lyozmalari ayrim muhim xatoliklardan, e'tiborsizliklardan tashkil topgan. U ijtimoiy tadbirkorlikni ta'riflashga asos bo'ladigan 5 ta omil haqida qisqacha to'xtalib o'tadi. Ular quyidagilar:

- *Ijtimoiy qiymatni yaratishga va davom ettirishga asoslangan maqsadni qabul qilish;*
- *Ushbu maqsadga erishish uchun xizmat qiluvchi yangi imkoniyatlarni tinimsiz ravishda izlash va e'tirof etish;*

- ***Doimiy innovatsiya, adaptatsiya (moslashish) va ta'lim jarayoniga buyurtma berish;***
- ***Joriy (amaldagi) resurslarga chegara qo'ymasdan dadillik bilan faoliyat olib borish;***
- ***Konstitutsional okruglarga xizmat qilgan va ularning samaradorligiga sababchi bo'lgan javobgarlik hissining uyg'onishini namoyish etish.***

Ammo u yillik (yarim yillik) to'plan(adi)gan daromadlarga hech bir omilda to'xtalib o'tmagan.

Bizning fikrimizcha, bu nafaqat konseptual nomukammallikdan, balki psixologik xatolikdan ham darak beradi. Bu xatolik o'z navbatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini tanazzulga yetaklaydi. Ularning *"tadbirkorlik"* faoliyatini hech qanday iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy mustaqilliksiz olib borilishini taqozo etadi. Ular qancha yil o'tsa ham bir xil individual donorga, asosga va hukumat tashkilotlariga qaytib kelaverishadi.

Shunday ekan, ***"Ijtimoiy tadbirkorlik" nima? Bu tushuncha "tadbirkorlik" tushunchasidan aynan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?***

Ijtimoiy tadbirkor ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun yillik daromad to'plash strategiyasidan foydalanuvchi har qanday sektordagi har qanday insondir. Ijtimoiy tadbirkor an'anaviy tadbirkordan ikki usul orqali farq qiladi:

Birinchidan, an'anaviy tadbirkorlar ijtimoiy javobgarlik usulida faoliyat olib boradilar. Ular nodavlat-notijorat sektorlariga pul mablag'larini tortiq qilishadi; ular biznesning aniq bir shaklini targ'ib qilishdan voz kechishadi; ular ekologik sof materiallardan va atrof-muhitga xavfsiz tajribalardan foydalanishadi; ular qo'l ostidagi ishchilari bilan o'zlarining mansablari va hurmatlariga yarasha munosabatda bo'lishadi. Bularning barchasi hayratlanarli, albatta, ammo ularning harakatlari ijtimoiy muammolarga faqatgina bilvosita bog'lanadi. Ijtimoiy tadbirkorlar esa umuman farq qiladi, chunki ularning daromad to'plash strategiyasi ijtimoiy maqsadlarga bevosita aloqador bo'ladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga yaroqsiz bo'lgan, doimiy ravishda (xronologik) aqli zaif bo'lgan, jismoniy qobiliyati cheklangan, shuningdek, kambag'al insonlarni ham ish bilan

ta'minlaydi, yoki maqsadga erishishga imkon beruvchi mahsulot (g'oya, axborot) va xizmatlarni maxsus ijtimoiy muammolarga (masalan, moddiy imkoniyati cheklangan insonlarni (kamta'minlanganlarni) ta'lim sohasiga jalb qilish va tutib turish bo'yicha faoliyati olib borish, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar (nogironlar) uchun yordamchi mexanizmlar ishlab chiqish, yolg'iz keksalarga uy sharoitida tibbiy va ijtimoiy g'amxo'rlik ko'rsatish xizmatlari bilan ta'minlash, o'quv kurslarini rivojlantirish va targ'ib qilish) bevosita ta'sir qilish uchun sotadi.

Ikkinchidan, an'anaviy tadbirkorlar pirovardida moliyaviy natijalar orqali baholanadi. Korxonalarning muvaffaqiyati yoki omadsizligi korxona egalari uchun foyda to'plash qobiliyati orqali belgiladi. Boshqa tomondan qaraganda, ijtimoiy tadbirkorlar o'z faoliyatini ikkita asosiy yo'nalish, ya'ni moliyaviy va ijtimoiy natijalarning haqiqiy aralashmasi orqali boshqaradilar. Samaradorlik (foйда keltirish darajasi) – bu asosiy maqsaddir, olingan foyda esa aksiyadorlarning qo'shadigan hissalariga nisbatan ko'proq miqdorda qayta investitsiyalash uchun sarflanadi.

2. “Iqtisodiy barqarorlik (hamkorlik)” va “Iqtisodiy mustaqillik” tushunchalari o'rtasidagi farqlar. Nodavlat-notijorat sektorlari an'anaviy tarzda dastlab sahovatpeshalar, ko'ngillilar, hukumat subsidiyalariga javoban “qaramlik” modeli orqali boshqarilar edi. Lekin ijtimoiy tadbirkorlar bu formulaga o'zgartirishlar kiritdi. Unga ko'ra, sahovatpeshalar, ko'ngillilar, hukumat subsidiyalari ham qabul qilinadi, ammo ko'p vaqtgacha markaziy o'rinda turmaydi. Chunki “qaramlik modeli” ikkita asosiy tushuncha orqali o'zgartirilgan: “Iqtisodiy barqarorlik (hamkorlik)” va “Iqtisodiy mustaqillik” tushunchalari. “Iqtisodiy barqarorlik” tushunchasi bir qator omillarning kombinatsiyalaridan iborat: sahovatpeshalar, hukumat subsidiyalari va yillik to'plangan daromadlar. “Iqtisodiy mustaqillik” esa bir tomondan to'laqonli ravishda yillik to'plangan daromadlarga tayanadi va bu o'z navbatida shuhratparast ijtimoiy tadbirkorlarning pirovard maqsadiga aylanadi.

Qisqa qilib aytganda, nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyati hissadorlar, xususan, tashkilotlarning grandlari, hukumat subsidiyalari va boshqa turdagi xayr-

ehsonlarga moliyaviy qaramlikda davom etarkan, u hech qachon iqtisodiy barqarorlikka yoki iqtisodiy mustaqillikka erisha olmaydi.

AQSH Konsalting Ta'minoti qo'shmakorxonasining Prezidenti va Bosh Ijrochi Ofitseri Ketlin Byusherning fikriga ko'ra, "... kelajakda nodavlat tashkilotlar o'z maqsadlarini mana shunday yo'l bilan moliyalashtiradilar. Biz boshqa pul mablag'laridan xohlagancha foydalanmoqchiasmiz, biz uni o'zlarimiz ishlab topmoqchimiz. Oxirgi 15 yillik tajribaga asoslangan holda shuni aytishim mumkin, daromad topishning jozibasi shundaki, siz bu daromad orqali ko'p ishlarni qilishingiz, xohlagancha foydalanishingiz mumkin. Birovning yordamiga muhtoj bo'lmaysiz, sizning o'z boshqarmangiz va o'z ishchi xodimlaringiz bo'ladi. Bu g'oya erkin g'oya hisoblanadi va vaqti kelib shuni anglab yetasizki, siz orqaga, ya'ni boshqa jamg'arma turlarining chegarasiga qaytib borishni istamaysiz."

3. "Daromad to'plash strategiyasi" va "Ijtimoiy maqsadlar biznesi korxonalari" o'rtasidagi farq. Ko'pchilik nodavlat-notijorat tashkilotlarining boshqarma a'zolari va ma'muriyat ijtimoiy tadbirkorlarning kelajagi orqali qo'rqitishga urinishadi, chunki ular ijtimoiy tadbirkorlik biror bir biznes korxonasini boshlash va ish bajarish bo'yicha biroz bilimga ega bo'lishda deb biladilar. Ammo biznesni yaratish ijtimoiy tadbirkorlikda muvaffaqiyat qozonishning yagona yo'li emas.

Aslida, katta ko'pchilik nodavlat-notijorat tashkilotlari uchun eng samarali faoliyat manbai "daromad to'plash strategiyasi" hisoblanadi va ularda biznes korxonalarini boshlash uchun hech narsa bo'lmaydi. Quyida bir qancha terminlarning farqlari ifodalangan ikki xil yondashuvni ko'rib chiqamiz:

- ***Daromad to'plash strategiyasi.*** Barcha nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining mavjud dasturlari bo'yicha daromad to'plash imkoniyatiga ega. Bu imkoniyat kichik bo'lishi mumkin, ammo muhim kumulyativ ta'sirga turtki bo'la oladi. Ichki muhitning progressiv o'zgarishi va mavjud imkoniyatlarning manfaatli tomonlarini izlash orqali, ijtimoiy tadbirkorlar bir qator ijobiy natijalarni qayd etib bormoqda.

- ***Biznes korxonalari.*** Qachondan beri nodavlat notijorat tashkilotlari turli xildagi daromad to'plash srategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu

faoliyatga rasmiy biznes korxonasi sifatida ham qarashlari mumkin, ammo maqsadlar yanada shuhratparastlikka yo'naltiriladi, strategiya ham butunlay boshqacha tus oladi. Nodavlat-notijorat tashkilotlarining biznes korxonalarini boshlashidan asosiy maqsad, muhim yuksalish va samaradorlikka qaratilgan o'ziga xos imkoniyatlardan foydalanish hisoblanadi. Daromad to'plash strategiyasidan ajratib turuvchi muhim farqi turli ijtimoiy dasurlarning narxlarini yashirishdan iborat. Ushbu sohadagi ixtirochilar shuni kashf qilishdiki, biznes korxonalarining rivojida muvaffaqiyatga erishish uchun tashkilot faoliyatini mumkin qadar tarqoq holda o'tkazishni taqozo etadi. Bu tarqoq ishchi guruhi, tarqoq rag'batlash siyosati va hatto tarqoq rahbariyat bo'limlarini anglatadi va bunday tashkillashtirish mumkin qadar iqtisodiy mustaqil bo'lishni ta'minlaydi.

4. "Innovatorlar", "tadbirkorlar" va "professional menejerlar" o'rtasidagi farq. Nodavlat notijorat tashkilotlari shuni kashf qilishdiki, tadbirkorlik faoliyati osonlik bilan inqirozga yuz tutarkan, buning asosiy sababi ular insonlarga noto'g'ri ravishda ergashishadi va munosabatda bo'lishadi. Bu yerda xatolikka yo'l qo'yilmoqda, chunki ular "innovatorlar", "tadbirkorlar" va "professional menejerlar" o'rtasidagi asosiy farqni tushunishmayapti.

Innovatorlar – bu xayolparastlardir: Ular yangi prototip (timsol) yaratishadi va uning ustida ishlashadi. Ularning qilgan eng yaxshi ishi bu ular yaratgan prototiplardir. Pirovardida, faoliyat natijalarining moliyaviy samaradorligi bilan munosabatga kirishadilar.

Tadbirkorlar – bu quruvchilardir: Ular prototiplarni yangi firmalar darajasiga aylantirishadi. Ular uchun moliyaviy samaradorlik faoliyatining asosiy mezonini hisoblanadi.

Professional menejerlar – bu ishonchli shaxslardir: Ular kelajakni mavjud infrastruktura va tizimni o'rnatish hamda nazorat qilish orqali himoya qilishadi, ular shu yo'l bilan korxona faoliyatining davomiyligiga ishonch bilan qarashadi.

Afsuski, nodavlat-notijorat sektorida resurslarning cheklanganligi sababli tashkilot holatiga mos kelmaydigan odamlar bilan munosabatda bo'lishga to'g'ri kelmoqda va shu sababli ushbu sektorda muammolar tug'ilmoqda. Bu

muammolarni bartaraf etish va mavjud iqtisodiy strategiyaga moslashish tadbirkorlar va professional menejerlarning faoliyati orqaligina amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, agarda nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyati tadbirkorlikka asoslangan bo'lsa, uning madaniyati an'anaviy nodavlat-notijorat sektori madaniyatidan butunlay farq qiladi. Tadbirkorlarda tavakkalchilik bo'yicha katta iroda, har sohada faollik va raqobat kurashiga ishtiyoq mavjud. An'anaviy nodavlat-notijorat sektori vakillari kapital bozoriga shubha bilan qarashadi, raqobat kurashlarida hamkorlikni afzal ko'rishadi va ishga yaroqsiz hodimlarning unumdorlik qobiliyatini noto'g'ri baholashadi. Boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligi, iqtisodiy mustaqilligining rivojlanayotganligini kuzatishadi, ammo ular bilan tajriba almashishga istaklari bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, an'anaviy nodavlat-notijorat tashkilotlari uchun ijtimoiy tadbirkorlik terminologiyasini tushunish hamda hayriya jamg'armalari, hukumat subsidiyalari, abadiy qaramlik kabi tushunchalar o'rniga daromad to'plash, iqtisodiy hamkorlik va iqtisodiy mustaqillik tushunchalarini o'rganish, ushbu kategoriyalar asosida faoliyatini yangidan boshlash davri keldi.

1.3. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi

Bozor iqtisodiyotining taraqqiyoti asosida shakllanayotgan aralash iqtisodiyot, avvalambor o'zida insoniylashgan, ijtimoiy tartib-qoidalarini mujassamlashtirgan mukammal shakli sifatida ajralib turadi. Bozor ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasidagi bu taraqqiyotning boshqa asosiy omillari bilan bir qatorda tadbirkorlik omili ham o'z rivojlanishida yangi va ijtimoiylashgan qirralari bilan ajralib, o'sishning yangi bir pallasiga qadam qo'ydi.

Ijtimoiy tadbirkorlik tadbirkorlikning madaniylashgan shakli sifatida o'tgan asrning 70-yillarida dunyoning ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlari murakkablashgan bir qator mamlakatlarda deyarli bir davrda yuzaga kela boshladi. Jamiyatning "ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal qilishning eng qulay va maqbul yo'llari bo'lgan tadbirkorlikning"²⁵ bu zamonaviy yo'nalishining ijobiy tajribasini to'plash va faol ravishda o'rganish ham o'sha yillari boshlandi. Ayniqsa, oldin sobiq sotsialistik mamlakatlardagi amalda ko'proq mafkuraviy yo'nalishda targ'ib qilingan ijtimoiy masalalarni hal etish yo'llari, endilikda ular bozor iqtisodiyotiga va shu asosda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish asoslarini yaratishda yurtimiz va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan o'rganishga jiddiy kirishildi.²⁶

Jumladan, iqtisodiyot, tadbirkorlikning ijtimoiylashuvi bilan bir qatorda "ijtimoiy tadbirkorlik", "ijtimoiy korxona" va "ijtimoiy tadbirkor" tushunchalariga e'tibor ko'paya boshladi. Bu tadqiqotchilarga tadbirkorlikda ijtimoiy tadbirkorlik sohasini va uning rahmdillik yo'nalishi – "Mainstreaming of mavericks" ni alohida ajratish imkonini berdi. Jumladan, ushbu yo'nalish asoschilardan biri, innovatsion va kreativ g'oyalar tadqiqotchisi, britaniyalik mutaxassis Charlz Lidbiter o'z

²⁵ Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T: "O'zbekiston", 2009 y.

²⁶ Qaralsin: "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti" (Akademiklar S. G'ulomov va M. Sharifxo'jayevning umumiy tahriri ostida). T: "O'qituvchi", 2000 y.; O'lmasov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi" – T: "Sharq", 2006 y.; Do'stjonov T., Salayev S. "Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari" – T: "Iqtisod-Moliya", 2006 y.; Defourny, J. & Nyssens, M. (eds.) (2008) "Social Enterprise in Europe: Recent Trends and Developments", *Working Papers Series*, no. 08/01, Liège: EMES European Research Network. https://orbi.ulg.ac.be/.../1/WP_08_01_SE_WEB.pdf; EMES European Research Network (2006) *Study on Promoting the Role of Social Enterprises in CEE and the CIS*, Initial Overview Study for the UNDP-BRC (Bratislava Regional Centre). www.emes.net va boshqalar;

maqolalarida va keyinchalik uning Buyuk Britaniyada nashr qilingan “The Rise of the Social Entrepreneur”²⁷ kitobida ijtimoiy tadbirkorlikni shunday atagan hamda bu yo’nalishning sobiq sotsialistik va g’arb mamlakatlari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lganligini ta’kidlagan.

Ijtimoiy tadbirkorlik va uning yo’nalishlariga aloqador tushunchalar O’zbekiston iqtisodiyotining ham nazariy ham amaliy jihatlar uchun nisbatan yangi tushunchalar bo’lib, bu atamaning va yo’nalishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o’rganish, uning ijtimoiy himoyada tutgan o’rnini amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish, aholi turmush farovonligini yaxshilashdagi rolini oshirish aralash iqtisodiyotga o’tish bosqichidagi barcha mamlakatlardagi kabi milliy iqtisodiyotimizning oldida turgan dolzarb masalalar hisoblanadi. Ushbu masalalar bo’yicha muammolarni hal qilish, tajriba to’plash, tadbirkorlikda samaradorlikka erishish yo’lida ilg’or mamlakatlar iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha shu davrgacha to’plagan tajribasini o’rganish mamlakatimiz tadqiqotchilari uchun muhim manbaa hisoblanadi. Bu sohadagi ijtimoiy tadbirkorlik va uning faoliyati turlari bo’yicha rivojlangan va rivojlanayotgan ayrim mamlakatlar to’plagan tajribalarini iqtisodiy-geografik va mintaqaviy kesimda 4 guruhga bo’lib o’rganish, bizning fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo’ladi. Ular quyidagilar:

I guruh: *Yevropa Ittifoqi mamlakatlari* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha to’plagan tajribasi;

II guruh: *Osiyo mamlakatlari* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha to’plagan tajribasi;

III guruh: *AQSH mamlakati* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha to’plagan tajribasi;

IV guruh: *Rossiya mamlakati* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha to’plagan tajribasi.

Ushbu guruhlariga kiruvchi davlatlar iqtisodiyotining ilg’or tajribalari haqida batafsil yoritib o’tamiz.

²⁷ Charles Leadbeater : “The Rise of the Social Entrepreneur”, Demos (Demos Papers) – March 11, 1997

I GURUH. *Yevropa Ittifoqi mamlakatlari* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha to'plagan tajribasi.

Yevropada Ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi: Yangilikka intilish. Ushbu guruhga kiruvchi *Yevropa Ittifoqi* ayrim mamlakatlari iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha to'plagan ilg'or tajribalari diqqatga sazovordir. Jumaladan, ***G'arbiy Germaniyada*** taniqli iqtisodchi olim va davlat rahbari Lyudvig Erxard va bir qator liberal demokratik va ijtimoiy yo'nalishlarga yaqin turgan iqtisodchilar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ayniqsa urushdan keyingi og'ir iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni hisobga olib ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratdilar. Germaniya, umuman rivojlangan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tadbirkorlikning, jumladan, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi yangilikka intilish, xususan, innovatsiyalarga asoslanish bilan ajralib turadi. Vaholanki, ijtimoiy tadbirkorlik g'oyasi dastlabki yillarda kam holatlarda katta bahs-munozaralar markazlariga aylangan bo'lsada, bu tushuncha Atlantika Okeanining ikkala tomoni, ayniqsa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSH uchun katta muvaffaqiyatlarga sababchi bo'lmoqda. Ushbu termin, shuningdek, Lotin Amerikasi va G'arbiy Osiyo (ayniqsa, Yaponiya va Janubiy Koreya) singari ko'plab boshqa hududlarda faoliyat olib borayotgan iqtisodchi, siyosatchi va jamiyatshunos olimlar tomonidan katta qiziqish bilan e'tirof etilmoqda (3-ilova).

Ijtimoiy korxona tushunchasi ilk marotaba ***Italiyada*** 1980 yilning oxirlarida paydo bo'lgan, ammo bunday korxonalar Yevropa darajasida 1990 yillarning o'rtalarida, ayniqsa EMES Yevropa Tadqiqot Tarmog'i²⁸ faoliyati doirasida haqiqatda amaliyotda qo'llanila boshlandi. Boshqa mamlakatlar misolida qaraydigan bo'lsak, garchi bu konsepsiya Yevropaning barcha davlatlarida bir xil darajada tan olinmagan bo'lsada (hatto ba'zi davlatlarda bu tushuncha haqida tor

²⁸ Bunday tadqiqot ishlari, asosan, Yevropa Komissiyasining Tadqiqotlar Bosh Boshqarmasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, uning faoliyati natijasi sifatida "Ijtimoiy Tadbirkorlikning paydo bo'lishi" (Borzaga va Diforni, 2001 y.) nomi bilan sarlavhalangan tahliliy asarni misol qilib keltirishimiz mumkin. EMES faoliyatining asosiy qismini tashkil qiluvchi ikkinchi asar Nissons tomonidan 2006 yilda nashr qilingan. Ushbu asarda ijtimoiy korxonalarning integratsion faoliyatini markazlashtirishga doir masalalar ilgari surilgan. EMES Tarmog'i o'z tadqiqotlarini Ukraina singari MDHning ba'zi mamlakatlari, G'arbiy va markaziy Yevropa mamlakatlarining hududlarigacha kengaytirgan.

doiradagi nazariy va amaliy tasavvurlar mavjud), Ittifoqda bu sohaga e'tiborni kuchaytirish maqsadida ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'lami deyarli barcha mamlakatlarda kengaymoqda. Ilmiy izlanishlar harakatini rivojlantirish esa bu tadqiqotlarni tahlil (analiz) qilishga undamoqda va uning natijalari amaliyotga keng tadbiiq qilinmoqda. Ushbu soha bo'yicha adabiyotlar ko'lami juda ham ortib rivojlanib bormoqda.

Yevropa Ittifoqida, shuningdek, undagi ijtimoiy korxonalarning integratsion faoliyatining kengayib borishi, garchi ijtimoiy korxonalarning asosiy sohalarida band bo'lgan insonlar uchun nisbatan salbiy ahamiyat kasb etayotgan bo'lsada, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tubdan hal qilish uchun tadbirkorlikning ushbu tarmog'ini yanada rivojlantirishga yordam beruvchi muhim tajribalarga tayanib bu yo'nalishdagi ishlar ko'lami kengaytirilmoqda. Xususan, 1990 yillarning boshlarida Italiyada shaxsiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi, ruhiy sog'lomlashtirish, psixologiya, sog'liqni saqlash sohalarini uchun mutaxassislarni ishga yollash va ushbu tarmoqlarni tez sur'atlarda rivojlantirish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi "A-Type" ijtimoiy korxonasi ish boshlagan.²⁹ Shuningdek, Shvedsiya va Fransiyada davlat ijtimoiy ta'minoti mablag'larining tanqisligi sababli ota-onalar va mutaxassislar tomonidan belgilangan va tarbiyalanadigan bolalarga g'amxo'rlik qilish xizmati ijtimoiy korxonalar faoliyatining katta qismini tashkil etadi. Irlandiya va Gretsiya singari ba'zi mamlakatlar hududiy rivojlanishida ijtimoiy korxonalarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini belgilash masalalaridagi rolga ham katta e'tibor berilmoqda. Shunga ko'ra, agro-ekoturizm kooperatsiyalari, ayniqsa, ayollar tomonidan tashkil qilinayotgan ijtimoiy tadbirkorlik korxonalari mamlakat hududining eng chekka mintaqalarida ham barpo qilinmoqda.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Yevropaning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga asoslangan ijtimoiy korxonalar turli yo'nalishda va turli darajada rivojlangan. Bunday ijtimoiy tadbirkorlikning yangi yo'nalishlariga

²⁹ Loss, M. (2003) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Italy", *EMES Working Papers*, no. 03/04.

asoslangan sohalar esa kengayib bormoqda. Alohida Yevropa mamlakatlari misolida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, masalan, **Belgiyada** ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi biroz sayoz rivojlangan bo'lsada, uchinchi sektordagi tadbirkorlik korxonalarining sonini oshirish orqali ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga urg'u berish holatlari ancha ko'paymoqda.³⁰ Masalan, mamlakatdagi "Ijtimoiy maqsadlar" kompaniyasining faoliyati 1996 yildan boshlandi. Bu mamlakatdagi ijtimoiy korxonaning yangi huquqiy shaklining yagona namunaviy ko'rinishi bo'lmasada va daromadlari keskin oshib ketmasada ko'p turdagi tadbirkorlik sub'yektlari bu kompaniya belgisini qabul qildilar va kompaniya maqomiga oid bir qancha shartlarni bajaradilar. Bu kompaniya maqomi 1996-2006 yillar mobaynida mamlakatdagi 400 dan ortiq ijtimoiy korxonalar tomonidan qabul qilingan. Ushbu maqom mamlakatdagi ijtimoiy an'anaviy korxonalar huquqiy shakli bilan birgalikda faoliyat olib borishni, shuningdek, ko'plab asosli shartlarni qanoatlantirishi mumkinligini bildirishi ehtimoldan holi emas. Ko'plab tashabbuslarga ko'ra, EMES tomonidan ta'riflangan ijtimoiy korxona mezonlari qatoriga qonuniylik (notijorat assotsatsiyalari) mezonini ham qabul qilindi, zero bu mezon tashkilotning ijtimoiy maqsadlarga bo'ysundirilgan harakatini ta'minlovchi tijorat faoliyatida muvaffaqiyatga yetaklovchi eng moslashuvchan omil hisoblanadi. Bundan tashqari, qonuniy shakl ijtimoiy himoyaning turli xil shakllarini aniqlash uchun juda ham zarurdir. Shuningdek, Vallun hududidagi "Korxonalarning integratsion faoliyati" loyihasiga o'xshash ba'zi ijtimoiy loyihalar ijtimoiy tadbirkorlik kompaniyasining huquqiy maqomini talab qiladi.³¹

Daniyada "Ijtimoiy tadbirkorlik" va unga tegishli bo'lgan atamalar ancha yangi tushunchalar hisoblanadi. Bu tushunchalar ijtimoiy-itisodiy sohalar lug'atlariga endigina kiritildi. Bular ushbu sohaning tashabbuskorlari, ya'ni uchinchi sektorning asosiy tadqiqotchilari, ijtimoiy tadbirkorlarning o'zlari va ijtimoiy soha

³⁰ Ijtimoiy korxonalarning bunday izohi Belgiyada ba'zi holatlarda qo'llaniladigan "Ijtimoiy iqtisodiyot bozori" konsepsiyasiga olib keladi (EMES Yevropa Tadqiqot Tarmog'i, 2007 y.)

³¹ Grégoire, O. (2003) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Belgium", *EMES Working Papers*, no. 03/08.

vakillari tomonidan keng foydalanib kelinmoqda. Siyosatchilar orasida bu g'oya mehnat bozoridagi ishsiz shaxslarning integratsion vazifalariga ijtimoiy javobgarlikni qamrab oluvchi, shuningdek, an'anaviy tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish dasturlarini o'z ichiga oluvchi faol mehnat bozori siyosatining bir qismi sifatida foydalaniladi.³²

Finlandiyada ijtimoiy korxonalarining integratsion faoliyati faqat bir yo'nalishda amalga oshiriladi va bu turdagi korxonalar qonun tomonidan himoyalangani. Ijtimoiy va sog'liqni saqlash sohalarida ro'y berayotgan yuksalishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin kelajakda "Ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasi ancha keng kontestda qo'llanila boshlaydi. Darhaqiqat, ushbu sohaning ko'plab vakillari rasman o'zlarini ijtimoiy korxonalar deb tan olmaganlar, ko'pchiligi korxona va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan ta'minlaydilar, ba'zilar mehnatga layoqatsiz aholi qatlami uchun milliy birlashma singari umummilliy assotsatsiyalarni moliyalashtiradilar, faqatgina bir qanchasi koperativ, yoki shunchaki mijoz, yoki tashkilotlarning ishchi xodimlaridir. 2007 yil Finlandiya Parlamentida ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan ta'minlaydigan ijtimoiy korxonalarining maxsus qonunchiligiga doir dastlabki muhokamalar o'tkazildi va bu yig'ilish ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtirgan korxona mavzusi akademiklar orasida katta qiziqishning uyg'onishiga sababchi bo'ldi.³³ Finlandiyaliklarning jismoniy qobiliyati cheklangan shaxslarni maxsus ixtisoslashtirilgan tashkilotlarda ish bilan ta'minlash faoliyatiga ishtiyoqlari, ayniqsa, II Jahon Urushi va 1960 yillardan so'ng jadal ravishda rivojlandi. Shundan buyon Finlandiya Nordikning forovon mamlakatlari guruhiga kiradi.³⁴ Bu guruh faoliyati, asosan, ijtimoiy sektordagi parvarishga muhtoj bemorlarning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish ma'suliyatini o'z zimmasiga oluvchi universal farovonlik tizimiga asoslangan.

³² Hulgård, L. (2006) "Danish social enterprises: a public-third sector partnership", in Nyssens, M. (ed.) *Social Enterprise – At the crossroads of market, public policies and civil society*, London and New York: Routledge; Hulgård, L. & Bisballe, T. (2004) "Work Integration Social Enterprises in Denmark", *EMES Working Papers*, no. 04/08.

³³ Pättiniemi, P. & Immonen, N. (2002) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Finland", *EMES Working Papers*, no. 02/10.

³⁴ Nordik o'z tarkibiga 5 ta mamlakat, ya'ni Daniya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvedsiya bilan bir qatorda Skandinaviya konstitutsiyasini oladi.

Angliyada ijtimoiy tadbirkorlik ko'proq "Ijtimoiy tadbirkorlik" brendidan va ishonch qozonish tajribasidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Mamlakatda mana bir necha yildirki "Ijtimoiy tadbirkorlik" brendi yoki nomidan siyosatda va rivojlanish dasturlarida foydalanib kelinmoqda. Darhaqiqat, mamlakat konsepsiyalarining ko'pchiligida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga ijtimoiy tadbirkorlik g'oyalari mos keladi. Jumladan, "Uchinchi yo'l" deb nomlangan istiqbolli dastur ijtimoiy haqqoniylik bilan iqtisodiy dinamiklikni o'zaro birlashtirishga asoslangan.³⁵ Bu dastur, shuningdek, ijtimoiy soha vakillari bilan o'zaro kelishgan holda ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan siyosiy masalalarga ham mos keladi. Lekin bu sohada taraqqiyot asosan ijtimoiy korxonalar integratsion faoliyatida, uy sharoitida g'amxo'rlik qilish xizmatlarida va dam olish xizmatlarida rivojlanadi va ular bunday faoliyat olib borishlari uchun vakolat olishni nazarda tutmaydilar. Chunki vakolat olish o'z navbatida, ularning bajaradigan ish hajmiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy korxonalar qanchalik kichik yoki o'rtacha bo'lsa, ularning ijtimoiy hamkorlik qilishdagi muammolari ham shunchalik murakkab va qiyin bo'ladi.³⁶

II GURUH. *Osiyo mamlakatlarining* ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi tajribalari.

Xitoy. *Ijtimoiy tadbirkorlik – Xitoydagi yangi konsepsiya.* Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi tajribalaridan **Xitoyning** ijtimoiy tadbirkorlik sohasi – mamlakatning yangi konsepsiyasi sifatida alohida diqqatga sazovardir. Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlikning dastlabki bosqichi xorijiy mamlakatlar tajribasi va tadqiqotlari orqali asrimizning dastlabki yillarida shakllana boshlandi. Hozirgi davrga kelib mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlik "Xitoyliklarning xususiyatlari" deb nomlangan maxsus korporatsiya faoliyati natijasida va bu sohani qo'llab-quvvatlovchi fidoiy tadbirkorlar va mutaxassislar uchun eng qaynoq faoliyat turiga aylanib ulgurdi.

³⁵ IFF Research (2005) *A Survey of Social Enterprise across the UK*. London: Small Business Unit. http://www.cabinetoffice.gov.uk/upload/assets/www.cabinetoffice.gov.uk/third_sector/survey_social_enterprise_across_uk.pdf

³⁶ Spear, R. (2002) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: United Kingdom", *EMES Working Papers*, no. 02/06.

Ijtimoiy korxonaning xitoy tilidagi tarjimasi. Moskvadagi Skolkova menejment maktabi professor assistenti Meng Zao “Ijtimoiy korxona” tushunchasining Ingliz tilidan Xitoy tiliga tarjima qilinganda 3 xil varianti borligini alohida ta’kidlab o’tadi.³⁷ Ular quyidagilar:

Bular – ijtimoiy korxona (社会企业), ijtimoiy faoliyat (社会创业) va ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish (公益创业) va ularning farqlar Ingliz tiliga qaraganda Xitoy lingvistik lug’atida “Ijtimoiy” va “Korxona” so’zlarning turli xil ma’nolari mavjudligiga qarab izohlanadi. Xitoy tilida “Ijtimoiy” so’zi notijorat, sahovatpeshalik, mehr-shavqat so’zlari bilan qo’llanilishi majburiy emas, bu tushuncha, odatda, ijtimoiy sektor, ijtimoiy iqtisodiyot iboralarida ishlatiladi. Xitoyliklarda ijtimoiy mahsulot termini, asosan, mehr-shavqat, sahovatpeshalikni izohlash uchun qo’llaniladi. Xitoyda “Korxona” tushunchasi innovatsiya, tavakkalchilik va avantyura (qaltis ish) singari bir qator tushunchalarning kichik birikmasini o’z ichiga oladi. Bu tushuncha biznes yoki kompaniya tushunchalarini tor doirada ko’rsatadi.

Ijtimoiy korxonaning izohi. Xalqaro miqyosda ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy korxona tushunchasining aniq izohi bu – iqtisodiy va ijtimoiy qiymat o’rtasidagi to’g’ri balansni aniqlash hisoblanadi.³⁸ Xitoy bahs-munozaralarida ijtimoiy korxonaning alohida izohi ikki omilga bog’liqligi ta’kidlanadi, bular quyidagilar:

Tashkiliy xususiyati – Ijtimoiy korxonalar notijorat tashkiloti sifatida ro’yxatga olinishi va boshqarilishi kerakmi yoki foyda keltiruvchi, tijorat korxonalari sifatida faoliyat olib borishi zarurmi? Xitoyda notijorat tashkilotlari uchun bu juda muhim, chunki ular biznes korxonalari sifatida ro’yxatga olinsalar qonuniy jihatdan ijtimoiy korxonalardan farq qilmaydi.

Daromadlar avlodi. Ijtimoiy korxonalar tovar va xizmatlarni bozorga sotib moliyaviy barqarorlikka erishishi kerakmi yoki hukumat grantlari asosida

³⁷ Meng Zhao (2012) The Social Enterprise Emerges in China. <http://www.ssireview.org/articles/entry/the-social-enterprise-emerges-in-china>

³⁸ Xiaomin Yu (2011) Social enterprise in China: driving forces, development patterns and legal framework. Social Enterprise Journal Vol. 7 No. 1, 2011 pp. 9-32

keladigan resurslarni birlashtirishi lozimmi? Bu ham Xitoydagi notijorat tashkilotlarining faoliyati bozor va savdo o'rtasida amalga oshadimi degan savollarni ko'paytirib yubormoqda. Bu savollarga javob olishdan oldin tashkilot ijtimoiy korxonami yoki notijorat tashkilotimi degan savolga aniq javob topishi kerak.

Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlar kimlar? Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlik ruhi qaynamoqda. Katta motivatsiya bilan faoliyat olib borayotgan ijtimoiy tadbirkorlar mamlakat bo'ylab ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish bilan band bo'lmoqdalar.

Xalqaro Tadbirkorlik Monitoringi (2011 yil) shuni aniqladiki, erkaklar ayollarga qaraganda ijtimoiy tadbirkorlikni olib borishga ko'proq moyil bo'ladilar.³⁹ Bu nisbat turli mamlakatlarda turlicha ko'rsatkichga ega. Masalan, Malayziya yoki Rossiyada ayollar ijtimoiy tadbirkorlik korxonalarini ochishga erkaklarga nisbatan ko'proq moyil bo'lishadi. Xitoyda bu ko'rsatkich nisbatan teng. Uning nisbatlari Birlashgan Qirollik bilan deyarli o'xshash (ayollar 46%, erkaklar 54%). Xitoyda 42% ayollar, 58% erkaklar ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini boshlashga ishtiyoqmand hisoblanishadi.


Jinsiy tafovut va iqtisodiy ta'sir. Ikki xil jins vakillarining iqtisodiyotga katta ta'siri yaratilgan ish o'rinlarining sonida yaqqol kuzatiladi. So'rovlarimiz natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, ayollar o'rtacha hisobda 4 ta ishchi o'rin yaratishsa, erkaklar o'rtacha 14 ta ish o'rnining ochilishida ishtirok etishar ekan. Bundan tashqari, erkaklar tomonidan asos solingan ijtimoiy tadbirkorlik korxonalari ayollarning korxonalariga nisbatan ancha samaraliroq faoliyat olib borar ekan (erkaklarda 57% , ayollarda 10% hollarda), shuningdek, ayollar kamchiliklarni aniqlash va tuzatishlar kiritishga erkaklarga nisbatan ko'proq moyil bo'lisharkan (40% ayollar, 14% erkaklar).⁴⁰

Butun dunyo bo'ylab shu narsa aniqlanganki, 25-34, 35-44 yosh oralig'idagi insonlarning ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqi

³⁹ Global Entrepreneurship Monitor (2011). <http://www.gemconsortium.org/key-indicators>

⁴⁰ Pang Li (2011) China's women are 46% its workforce. China.org.cn, November 29, 2011. http://www.china.org.cn/china/2011-11/29/content_24034152.html

eng yuqori darajada bo'ladi. Xitoydagi ijtimoiy tadbirkorlarning katta qismi (63% i) o'zining professional yo'nalishini yaratish va kasbiy yoki professional mahoratini rivojlantirish davri hisoblangan 33-40 yosh oralig'idagi tadbirkorlardan iboratdir (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Xitoyda ishbilarmonlarning yosh tarkibi bo'yicha ijtimoiy tadbirkorlikka moyillik darajasi (foizda)⁴¹


Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, Xitoyda ishbilarmonlarning ijtimoiy tadbirkorlikka ishtiyoqmandlik darajasi 31-40 yosh oralig'ida eng yuqori ko'rsatkichga erishar ekan. Albatta, bunday yosh oralig'ida inson yangi faoliyatni tashkil etishi va boshqarishi uchun tajriba hamda intellektual salohiyat bilan yetarlicha qurollangan bo'ladi. Yosh tarkibining boshqa bosqichlarida ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarishga motivatsiya darajasi ancha past ekanligini chizma ma'lumotlari tasdiqlab turibdi.

Ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtish manbaalari. Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan ta'minlash borasida ko'plab tashkilotlar turli

⁴¹ Chine Social Entrepreneur Report, 2012, p 12.

www.bsr.org/reports/FYSE_China_Social_Enterprise_Report_2012.PDF

yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda va ularning moliyaviy hissasi ham har xil darajada (1.3.2-rasm).



1.3.2-rasm. Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari va ularning moliyaviy hissalarini (foizda)⁴²

Rasmda keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Xitoyda ijtimoiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda eng faol qatnashadigan tarmoq bu "Oila va do'stlar" tarmog'idir. Uning hissasi ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

III GURUH. AQSH mamlakatining ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha to'plagan tajribasi.

Ijtimoiy ta'limni o'zgartirishda ijtimoiy tadbirkorlikning roli. AQSHning ijtimoiy ta'lim tizimida milliy inqiroz mavjud. Bunga sabab tajribasiz o'qituvchilar, ixtisoslashmagan maktablar va o'zgartirishga qodir bo'lgan siyosiy kuch singari tizimli to'siqlardir. Mavjud daxshatli to'siqlar orasida, shijoatli ijtimoiy tadbirkorlar ko'zga ko'rinarli natijalarga sabab bo'layotgan innovatsion va ta'sirli harakatlari orqali ta'limning inqirozli statusiga barham bermoqdalar. Bunday

⁴²Chine Social Entrepreneur Report, 2012, p 20.

www.bsr.org/reports/FYSE_China_Social_Enterprise_Report_2012.PDF

hollarda tadbirkorlar ta'lim tizimidagi mavjud muammolarning yechimini aniqlashda yordam berishadi. ijtimoiy ta'lim AQSH shtatlarida inqiroz darajasiga yetgan. Ushbu holatda ixtisoslashmagan maktablarni qayta isloh qilish zarurati tug'iladi. AQSH ijtimoiy maktablari tizimi bolalar va Amerika davlatining zaifligidan tashkil topgan:

Bolalarning zaifligi: Mamlakatning 15000 ta maktab okruglari va 100000 ta maktablarida shu kungacha Amerika bolalariga, ayniqsa, balog'atga yetgan va kam ta'minlangan bolalarga ta'lim berish bo'yicha qoniqarli ishlar olib borilgani yo'q. Kam ta'minlanganlar va o'smirlar 9 yoshdan yuqori va yuqori sinfning yarmini tashkil etadi. Bu guruhdagi bolalar yuqori sinfni kamida 7 marta bitkazolmay qolishadi. Kaliforniya shtatida 25% bolalargina yuqori sinfni bitkazishga muvaffaq bo'lishgan. Sakramentoda esa faqatgina 20% Amerika yoshlari 4 yillik kollejlarga qabul qilinganlar. Vashington D.S.da 16% sakkizinchi sinf o'quvchilari o'zlarining darajalarida o'qiy olishadi va 9% o'quvchi kollejga borishni to'xtatib, 5 yil ichida bitkazishdi.

Mamlakat zaifligi. AQSHning 4-sinf o'quvchilari boshqa millatlarning shu sinf o'quvchilari bilan solishtirilgan hisoboti e'lon qilindi. Yuqori sinflar orasida quyidagilar aniqlandi: Amerika yoshlari matematik bo'yicha eng past o'rinlarni egallagan (30 mamlakat ichida 25-o'rinda), o'qish bo'yicha 15-o'rin, tabiiy fanlar bo'yicha 18-o'rinni egallagan. AQSH ta'lim tizimi tadqiqotchisi Kevin Jonson bunday inqirozli vaziyat haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Hozirda AQSH da ijtimoiy ta'lim sohasida milliy inqiroz mavjud, ammo bu inqirozni ildizi bilan yulib tashlash imkoniyati mavjud"⁴³.

Bu muammoni bartaraf etish uchun moddiy mablag' sarflash AQSH mamlakati uchun muammo emas. Asosiy muammo ta'lim tiziminig o'zida. Tajribasiz o'qituvchilarning ko'pligi, ixtisoslashmagan maktablarning mavjudligi bu muammoning butunlay bartaraf bo'lishiga yo'l qo'ymayapti. Bunday hollarda

⁴³ Stacey M. Childress, Steven Barr, Kevin Johnson, Wendy Kopp, Michelle Rhee – The Role of Social Entrepreneurship in Transforming U.S.A. Public Education, 2008, pp 2. www.hbs.edu/.../the-role-of-social-entrepreneurship-in-transforming-usa-public-education-1.htm

ijtimoiy tabirkorlik faoliyati yordamga keladi. Tadbirkorlik faoliyatiga Amerika hukumati muammolarni hal qiluvchi yangi yechimlar topish manbaasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy tadbirkorlik muammoning holatini o'zgartirishi yoki ularning barini butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin. Ta'lim sohasidagi muammolar shuhratparast ijtimoiy tadbirkorlar tomonidan innovatsion yo'l orqali bartaraf etiladi. Tadbirkorlik quvvati quyidagi sohalarda markazlashmoqda:

Insonlar. O'qituvchilarning intellektual salohiyatini, malakasini va ta'lim berish sifatini oshirish, ularning ota-onalar va jamiyat bilan doimiy aloqasini ta'minlash;


Maktablar. Hozirda Amerikada mavjud bo'lgan maktablar bilan bellasha oladigan yangi turdagi maktablar yaratish;

Dasturiy ijro. O'qish samaradorligini bir qator yangi metodologik va amaliy texnologiyalar orqali oshirishni ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqarish va rivojlantirish;

Institutsional to'siqlar. Ta'lim tizimini butunlay qaytadan kashf etish (tashkil etish).

IV GURUH. *Rossiya davlatining* ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha to'plagan tajribalari. ***Ijtimoiy manzara.*** 2015 yil ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya aholisining ijtimoiy sohada tajribaga ega bolganlar 51 % ni, biznes sohasida faoliyat olib boruvchilar 65% ni tashkil etadi. Davlatning moddiy yordamini rad etuvchilar 17% ni tashkil qilsa, 72% rossiyalik aholi hukumat homiyligining tarafdorlari hisoblanishadi.

Xususiylik yoki ijtimoiylik. Rossiya ijtimoiy tadbirkorlikning xilma xil paradigmalarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ko'plab ijtimoiy tashabbuslar orqali yaratilgan loyihalar hukumat homiyligi orqali amalga oshirilgan. Boshqa xususiy tashkilotlar ichida "Bizning kelajagimiz" fondi mana 7 yildan buyon Ijtimoiy tadbirkorlarning ta'lim va o'qitish dasturlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassalari (Universitetlar) ijtimoiy tadbirkorlikni kelajak avlodga yetkazib berishda muhim o'rin egallamoqda. Rossiyada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va jamiyatning hissasi juda ham katta (1.3.1-chizma).



1.3.1-chizma. Rossiya davlatining Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari⁴⁴

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xorijiy mamlakatlarning bunday ilg'or tajribalaridan keng foydalangan holda, yurtimiz ijtimoiy tadbirkorligini rivojlantirish, o'zimizning milliy strategik konsepsiyamizni takomillashtirishimiz lozim. Bu konsepsiyada uning maqsadini, asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishimiz va xalqimizning boy sahovatpeshalik, insonparvarlik, fidoiylilik va axloqiy fazilatlariga tayangan ijtimoiy tadbirkorlik mexanizmini ishlab chiqish mamlakat ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

⁴⁴ Dr. Natalia Pochinok, Rector Russian State Social University – Training of social entrepreneurs in Russia, 2015, pp 5. sewf2015.org/wp-content/uploads/.../W9_Pochinok.pdf

I BOB BO'YICHA XULOSA

Mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi iqtisodiy nazariyalar va ijtimoiy amaliyot uchun hali ancha yangi termin ekanligini yuqoridagi reja ma'lumotlari orqali ko'rib o'tdik. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarurati va uning ijtimoiy-iqtisodiy soha uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo'ldik. Bularni o'rganishdan maqsad ushbu soha rivojiga va ijtimoiy ahamiyatiga to'g'ri xulosa berishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida erishilgan natijalarni umumlashtirgan holda, olingan qisqacha *xulosalar* quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, ijtimoiy va iqtisodiy qiymatning o'zaro uyg'unlikda va aloqadorlikdagi ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati, tadbirkorlikka doir yaxlit tamoyillar, maqsad va vazifa yo'nalishlari ijtimoiy tadbirkorlik sohasining mazmuniy ifodasini tashkil etadi.

Xorijiy mamlakatlarning bunday ilg'or tajribalaridan keng foydalangan holda, yurtimiz ijtimoiy tadbirkorligini rivojlantirish, o'zimizning milliy strategik konsepsiyamizni takomillashtirishimiz lozim. Bu konsepsiyada uning maqsadini, asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishimiz va xalqimizning boy sahovatpeshalik, insonparvarlik, fidoiylilik va ahloqiy fazilatlariga tayangan ijtimoiy tadbirkorlik mexanizmini ishlab chiqish mamlakat ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, an'anaviy nodavlat-notijorat tashkilotlari uchun ijtimoiy tadbirkorlik terminologiyasini tushunish hamda hayriya jamg'armalari, hukumat subsidiyalari, abadiy qaramlik kabi tushunchalari o'rniga daromad to'plash, iqtisodiy hamkorlik va iqtisodiy mustaqillik tushunchalarini o'rganish, ushbu kategoriyalar asosida faoliyatini yangidan boshlash davri keldi.

II BOB. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyalashtirish omillari va usullari

2.1. O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik rivojlanishining hozirgi holati tahlili

Prezidentimiz Islom Karimov 2016 yil 16 yanvar kuni 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida ma'ruza qildilar. Ma'ruzada mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etildi. Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2012 yilda 8,2 %, 2013 yilda 8,0 %, 2014 yilda esa 8,1 %, 2015 yilda esa 8,0 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasining 2012-2015 yildagi makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (foizda)⁴⁵

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot	8,2	8,0	8,1	8,0
2.	Sanoat mahsuloti	7,7	8,8	8,3	8,0
3.	Qishloq xo'jaligi	7,0	8,8	8,3	6,8
4.	Jalb qilingan investitsiyalar	14,0	11,3	10,9	9,6
5.	Eksport hajmi	14,4	12,8	13,3	13,5
6.	Inflatsiya darajasi	7,0	6,8	6,1	5,6
7.	Davlat budjeti holati	0,4	0,3	0,2	0,1
8.	O'rtacha oylik o'sishi	26,5	20,8	23,2	21,9
9.	Xizmatlarning YaIM dagi ulushi	52,0	53,0	54,0	54,5
10.	Kichik biznesning YaIM dagi ulushi	52,5	55,8	56,0	56,7

⁴⁵ Statistika ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

O'tgan 2015 yilda asosiy vazifa - xalqimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, har tomonlama puxta o'ylangan, uzoqni ko'zlaydigan keng ko'lamli Dastur hayotga joriy etildi. Ushbu Dastur chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, eng muhimi, Konstitutsiyamizda ko'zda tutilganidek, xususiy mulkning qonuniy, me'yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan.

Ushbu Dastur asosida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki ob'yekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi yer maydoni bo'shadi. Bu yerlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish ob'yektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Davlat organlari va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015 yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik sub'yekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014 yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda.

Shu yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik sub'yektlariga "yagona darcha" tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha

jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida: "Ishbilarmonlik – biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoit tug'dirib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish real iqtisodiyotni isloh etishning navbatdagi eng muhim yo'nalishiga aylanmog'i zarur"⁴⁶ deb ta'kidlab o'tgan edilar. Mamlakatimizda *ishbilarmonlik muhitini yaxshilash* borasida olib borayotgan ishlari xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki "Biznes yuritish" reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, "yangi biznesni qo'llab-quvvatlash" deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. "Kichik biznes sub'yektlariga kredit berish" deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pog'onaga yaxshiladi (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitining o'sish ko'rsatkichlari⁴⁷

⁴⁶Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi". – T.: "O'zbekiston", 2014 y., 29-b.

⁴⁷<http://m.cbu.uz/uz>

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan 2015 yilda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isbotidir.

Xorazm viloyatida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash. Xorazm viloyatida iqtisodiy jarayonlarni yanada jadallashtirishda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu omil mintaqada investitsion iqlimning ijobiy tomonga o'zgarishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotga sarmoyalarni jalb etish uchun zarur shart-sharoitni yaratib beradi.

Xorazm viloyatida tadbirkorlik, shu jumladan ijtimoiy tadbirkorlik va mahalliy tashabbuskorlikka ta'sir etuvchi omillarning eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish o'rinlidir:

1. Xorazm viloyati sharoitida tadbirkorlik sub'yektlarining xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi juda muhim hisoblanadi. Chunki viloyat yetarli darajada o'zining xomashyo bazasiga ega emas. Bunday muammolarni bartaraf etish yo'llaridan biri – xomashyo manbalari mavjud hududlardagi tadbirkorlarning loyihalarini amalga oshirishda sheriklik qilishiga erishishdir.
2. Mahalliy tashabbusga asoslangan loyihalarni amalga oshirish ayni paytda ko'p jihatdan moliyaviy mablag'lar ta'minotiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu borada moliya sektori infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga moliyaviy resurslarni olish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ko'pchilik franchayzing, forfeyting kabi

yangi xizmatlar haqida deyarli ma'lumotga ega emas, lizing xizmatlaridan esa asosan qishloq xo'jaligi mashinalarini ijaraga olishdagina foydalanilmoqda.

Loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- Zamonaviy kredit, lizing, franchayzing va boshqalarni o'zlashtirish;
- Kichik korxonalarni kreditlash tizimini tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondi, yirik korxonalar va yangi tashkil topgan kichik korxonalar bilan kooperatsion aloqada bo'lgan korxonalar kafolati asosida rivojlantirish;
- Samarasiz va to'lov qobiliyati past bo'lgan korxonalar mulkidan kichik tadbirkorlikni resurslar bilan ta'minlash va uning infratuzilma ob'yektlarini qurish manbai sifatida foydalanish;

3. Viloyatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun xorijiy investitsiyalar va grandlarni jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish, undagi muammolarni ham o'z vaqtida hal etish darkor. Hozirgi paytda Xorazmda vujudga kelgan beqaror ekologik vaziyat xorijiy investitsiyalar va grandlarni jalb etishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishga qulaylik tug'diradigan sharoitni yaratish mahalliy tashabbuskorlikning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada biznesni boshlashdagi ma'muriy jarayonlarni qisqartirish va to'siqlarni bartaraf etish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish (rasmiylashtirish) va olib borish bilan bog'liq tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, hisobotlar va tekshiruvlar sonini minimal darajaga tushirish, yer uchastkalari va qurilishga ruhsatnomalar olishda mavjud sansalorliklarga chek qo'yish, infratuzilma tarmoqlariga ulanishdagi to'siqlar va norasmiy talablarni bartaraf etish va boshqalar muhim masalalardir.


5. Joylarda ishbilarmonlik muhitini doimiy tahlil qilib, baholab borishni yo'lga qo'yish, bu boradagi ishlarni tizimli, asosli tarzda tashkil etish, dasturiy chora-tadbirlarni belgilash, biznes uchun qulay sharoit yaratish va sarmoyadorlarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda sarmoyadorlarni mintaqaning investitsion salohiyati bilan tanishtirish va bu borada turli xil ma'lumot manbalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

6. Aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy faravonlikni oshirish yo'llari va usullari to'g'risidagi ilmiy va huquqiy savodxonligini oshirish ijtimoiy tadbirkorlik hamda ijtimoiy faravonlikni yuksaltirishning boshlang'ich omili hisoblanadi. Bu borada maxsus o'quv va amaliyot kurslarini tashkil etish, ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha jahonning ilg'or tajribalarini manba sifatida o'rganib chiqish tadbirkorlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

7. Tadbirkorlik sub'yektlari, NNT tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy muommolarni bartaraf etish, aholining ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarini moliyaviy ta'minlashda davlat budjetidan tashqari, mintaqadagi tijorat banklari kredit mablag'lari va tadbirkorlik sub'yektlarining daromadlarini keng jalb qilish, ijtimoiy tadbirkor+ijtimoiy maqsad+iqtisodiy faoliyat+tijorat banklari+davlat shaklidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik (sheriklik) mexanizmini yo'lga qo'yish.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlarini bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan o'nta mamlakat qatoridan joy oldi (2.1.2-rasm) .

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan - aholi bandligini ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi. 2015 yilda iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishishi aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010 yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanligini alohida ta'kidlash zarur.



2.1.2-rasm. Dunyo mamlakatlarining 2016-yilda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari⁴⁸

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayapti, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinmoqda. Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni "detsil koeffitsiyenti" deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010 yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich - Jini indeksi mamlakatimizda 2010 yildagi 0,390 o'rniga 2015 yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015 yilda 158 ta davlatda "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z


⁴⁸ <http://toshloqpaxta.uz/forumeconomics>

fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni egalladi. Yurtimiz 2013 yilda bu reytingda 60-o'rinda edi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKO ning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investisiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir. 2015 yilda bu sohada 384 ta ob'yektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta'mirlandi.

Xalqimizning sog'lig'ini saqlash maqsadida 2015 yilda 141 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun qariyb 500 milliard so'm mablag' sarflandi. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida keyingi besh yilda mamlakatimizda har 100 mingta chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi (2.1.3-rasm).

Barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan, iqtisodiyotimizning resurs va imkoniyatlarini real baholagan holda, 2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi kamida 2 barobar oshishi prognoz qilinmoqda. Ushbu vazifalarning qanchalik asosli ekanini quyidagi hisob-kitoblar ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030 yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelgani hisobga olinsa, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi.



2.1.3-rasm. Onalar va chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi⁴⁹

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha 2016 yil rejalari. Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar eng ustuvor masalalar bo'lib kelgan. 2016 yiilda ijtimoiy sohaga Davlat budjeti jami xarajalatlarning 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatanko'proq mablag' ajratildi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat budjeti xarajatlarning 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi.

Aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifa bo'lib qoladi. 2016 yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratish mo'ljallanmoqda, jumladan KBXT, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi. 2016 yilda oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilari ish bilan ta'minlanmog'i lozim.

⁴⁹ 1. "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2011 yillar) asosiy tendensiyalari va ko'rsatkichlari hamda 2012-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari" statistik to'plami. – T.: „O'zbekiston“ – 2013. – 83-bet.

2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi – "Turkiston" gazetasi – 16.01.2016 yil, № 5, 3-bet.

2.2. Investitsiya, kichik biznes, o'rta sinfning o'zaro bog'liqlikda va hamkorlikda iqtisodiy rivojlanishi hamda uning omillari

Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda o'rta sinf shakllanishi va mustahkamlanishi bilan chambarchas bog'liq jarayonga va bu tabaqaning rivojlanishida uning asosini tashkil qilgan kichik biznesga va unga ajratiladigan investitsiyalar, ayniqsa, inson kapitaliga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatning izchil rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydigan inson omiliga, xususan, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda har qanday mamlakatning samarali iqtisodiy taraqqiyoti hamda raqobatbardoshligi undagi inson kapitalining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Inson kapitali nazariyasi XIX asrdan boshlab o'rganila boshlangan. O'sha paytda bu yo'nalish iqtisod fanining istiqbolli jabhalaridan biriga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, u avvalo iqtisod ta'limi va mehnatning asosiy yutug'iga aylandi.

Dastlab *inson kapitalining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri* klassik maktab nomoyondalari V. Petti, A. Smit, D. Rikardo, J. S. Mill, I. Fisher va boshqa iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Inson kapitali tushunchasining zamonaviy tahlili B. Veysbrod (Vashington universiteti), J. Minser (Kolumbiya universiteti), L. Turou (Massachusetts texnologiya instituti), U. Bouen, M. Fisher va J. Veyzi (Kembridj va Oksford universitetlari) kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda inson kapitali tushunchasining keng va tor ma'nolarda berilganini ko'rish mumkin. Shuni hisobga olgan holda, tor ma'noda "Inson kapitali, shubhasiz, zamonaviy iqtisodiy o'sishning muhim omili va ijtimoiy-

iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi"⁵⁰. Keng ma'noda esa inson kapitali investitsiya qilish – ishchi kuchini tashkil etib, ishlab chiqarishga tayyorlash, sog'liqni saqlash, migratsiya hamda narxlar va daromadlarga oid ma'lumotlar qidirishga bo'lgan xarajatlar ko'rinishida shakllanadi.

“Iqtisodiy ensiklopediya” («Экономическая энциклопедия») da **inson kapitaliga** “...mablag' ajratishning alohida turi, insonning qayta ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar yig'indisi, sifatni oshirish va ishchi kuchi xizmatlarini yaxshilash” deb ta'rif beriladi, umumiy ma'lumot va maxsus xarakterdagi bilimlar, ko'nikmalar va to'plangan tajriba inson kapitali ob'yekting tarkibiy qismi hisoblanadi.⁵¹

Inson kapitali tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga birinchilardan ta'rif bergan Teodor Shulsning qayd etishicha, kambag'al inson farovonligining oshishi yerga, texnika vositalarga emas balki uning bilimiga bog'liq. Bu bilimni u “inson kapitali” deb atagan. Uning bu yangiligi 1979 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Shuningdek, inson kapitali konsepsiyasi amerikalik iqtisodchi G. Bekker tomonidan 1960 yilda ilgari surilgan va 1992 yilda bu kashfiyoti uchun u Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan.

Inson kapitali insonning daromad keltiradigan qobiliyatidir. Uning asosini inson qobiliyati tashkil etadi. Inson kapitalini rivojlantirish uchun hozirgi globallashuv sharoitida investitsiyalar jalb qilish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Inson kapitaliga investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan ixtiyoriy chora, yo'l va qarorlar yig'indisidir. Umumiy mezonlarni hisobga olganda, inson kapitaliga investitsiyalar deganda quyidagi xarajatlar majmui nazarda tutiladi: sog'liqni saqlash, umumiy va maxsus ta'lim, ish qidirish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishga professional tayyorgarlik, migratsiya, bolalarning dunyoga kelishi va tarbiyasi, narxlar va daromadlarga oid iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar kiradi.

⁵⁰ Мау В. Человеческий капитал: вызовы для России. // «Вопросы экономики», 2012, №7. С. 114. Источник: http://www.ganepa.ru/files/pubs/rector/voprosy_ekonomiki0712.pdf

⁵¹ Экономическая энциклопедия./Гл.ред. Л.И.Абалкин. – М.: Издательство «Экономика», 1999. – С. 275.

Iqtisodchi olimlar inson kapitaliga investitsiyalarning 3 turini ajratib ko'rsatadilar:

- *Ta'limga xarajatlar*. U umumiy va maxsus, rasmiy va norasmiy ta'lim hamda ish joylariga ko'ra tayyorgarlikni o'z ichiga oladi;
- *Sog'liqni saqlash xarajatlari*. U kasallik profilaktikasi, tibbiy xizmat ko'rsatish, parhez ovqatlanish, sog'lom turmush tarsi, yashash sharoitini yaxshilash kabilarni o'z ichiga oladi;
- *Harakatchanlik xarajatlari*, nisbatan past unumdorlik bo'lgan joylarda ishchilarning ko'chishi bilan bog'liq xarajatlar.

Shu bilan birga, inson kapitaliga investitsiyalar moddiy va nomoddiy turlarga ham bo'lib o'rganiladi.

Moddiy turga insonning jismoniy shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlar (bolaning tug'ilishi va tarbiyasi uchun chiqimlar) kiradi.

Nomoddiy turga umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik uchun yig'ilgan xarajatlar, sog'liqni saqlash va ishchi kuchini taqsimlash uchun yig'ilgan xarajatlarning ma'lum qismi kiradi.

Sog'liq va ta'limga mablag' ajratish inson kapitaliga investitsiyalarning muhim turi hisoblanadi. Umumiy va maxsus ta'lim sifatini yaxshilaydi, insonning bilimlar zahirasini va darajasini oshiradi, shu bilan birga inson kapitalining hajmi va sifatini oshiradi. Ma'lumki, XXI asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan asr hisoblanmoqda. Darhaqiqat, taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanishda hal qiluvchi muhim mezon – bu, *zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan mutaxassislar* hisoblanadi. Prezidentimiz I.A. Karimov o'z nutqi “Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliy burchimiz – farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimiz kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun qo'limizdan

kelgan barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir”⁵² deya alohida ta’kidlagan edilar.

Inson kapitali o’z tarkibida bir qator omillarni jam etgan bo’lib, uning asosni ta’lim darajasi tashkil etadi. Bugungi kunda jahonda inson kapitalini hisoblashning bir qator mezonlari mavjud. Ular jumlasiga BMTning inson taraqqiyoti hisoboti, PISA, PIRLS va boshqalar kiradi. 1990 yilda BMT tomonidan qabul qilingan davlatlarning o’rtacha rivojlanish indikatorlari (Indeksi) mavjud. Bugungi kunda inson taraqqiyoti indeksleri quyidagi yo’nalishlar asosida belgilanadi:

1. Aholi jon boshiga YaIM va daromadlarning to’g’ri kelishi;
2. Ta’lim sifati va aholining savodxonlik darajasi;
3. Kutalayotgan umr davomiyligi.

O’zbekiston mazkur taraqqiyot indeksleri bo’yicha dunyoda ancha yuqori o’rinni egallagan. Dunyoda inson kapitali omillari sog’liqni saqlash va ta’limdan iborat bo’lsa, o’zbek taraqqiyot modelida ular sog’liqni saqlash, sport, ta’lim, ilm-fan, oila, mahalla va iqtisod kabi tarkibiy unsurlardan iborat ekanligini qayd etish zarur (2.2.1-chizma).


Keyingi davrda mamlakatimizda kichik biznes ustuvor yo’nalish sifatida qaralib, uning taraqqiyoti har tomonlama qo’llab-quvvatlanishi, shu jumladan, unga zarur investitsiyalar hajmi keskin o’sishi kichik biznesning va shu asosda jamiyatda o’rta sinf hissasining ham salmoqli oshishiga olib keladi. Shu o’rinda o’rta sinf tushunchasiga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

O’rta sinf tushunchasi uzoq tarixga ega va u jamiyatdagi ijtimoiy o’zgarishlarga asoslangan holda takomillashib boradi. Aksariyat adabiyotlarda ”o’rta sinf” tushunchasi ”yangi o’rta sinf” yoki ”yangi o’rta sinflar” terminlari sifatida talqin etiladi.⁵³ Bizning fikrimizcha, ***zamonaviy o’rta sinf*** – daromad oladigan mulkka ega kichik tadbirkorlardan iborat bo’lgan yangi ijtimoiy ko’rinishdir.⁵⁴

⁵² Karimov I.A. “2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlangan, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi”. – T.: Ma’rifat, 2014 yil 18-yanvar

⁵³ N. Pulantsas o’rta sinfni ”yangi burjuaizmiya” sifatida aniqlaydi (new petty bourgeoisie), S. Mallet esa ”yangi ishchi sinf” sifatida (new working class), E. Giddens ”yangi o’rta sinf” (”new middle class”) sifatida talqin qiladi.

⁵⁴ Wright Mills C. White Collar. The American Middle Classes. N.Y., Oxford, 1951, p 9; Rayxanov U.A. ”Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvida o’rta sinfning roli”.- ”Iqtisod va moliya”, №4, 2013 yil, 20-bet;



2.2.1-chizma. Inson kapitali omillari⁵⁵

Hozirgi davrda tadqiqotchi olimlar va jahon iqtisodiy tashkilotlari tomonidan o'rta sinf chegaralarini belgilovchi asosiy mezonlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, kambag'allikni kamaytirish maqsadida xalqaro moliya institutlari tomonidan o'rta sinf toifasiga kunlik daromadi 2 dan 10 AQSH dollarigacha bo'lgan aholi qatlami kiritilgan. Mazkur yondashuv natijasida bugungi kunda dunyoda 1,8 mlrd. kishi, jumladan, Shimoliy Amerikada – 338 mln., Yevropada – 664 mln. va Osiyoda – 552 mln. kishi o'rta sinfga kiradi.⁵⁶

⁵⁵ S. Gulyamov, B. G'ayibnazarov "Mintaqalar modernizatsiyasini amalga oshirishda intellektual kapitalning roli" – Эффективное использование социально-экономического потенциала и привлечение новых источников экономического роста – Toshkent-IFMR-2015 y., 66- b.

⁵⁶ Kharas H. The emerging middle class in Developing Countries. // OECD Development Centre Working Paper. 2010, No 285, p 15.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekistonda o'rta sinfni shakllantirishga katta e'tibor berildi. Chunki bozor islohotlarining chuqurlashuvi va jamiyatning ijtimoiy barqarorligi ushbu sinf bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimov: "Shuni unutmaslik kerakki, o'rta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili va asosi, davlatning barqarorligi va mustahkamligining, odamlarning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchining muhim omili sifatida qabul qilinadi"⁵⁷, deya ta'kidlagan edi.

O'zbekistonda o'rta sinfning shakllanish va rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillari mazkur sinfning asosini tashkil qiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, o'rtacha daromadga ega bo'lganlar, agar 1991 yilda aholining 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 24 foizga yetgan. 2011 yilda esa 62 foiz uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'lmagan barqaror daromadga ega bo'lgan.

Fikrimizcha, O'zbekistonda aholini o'rta sinfga kiritishning quyidagi mezonlarini alohida ajratish muhim hisoblanadi:

- Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish darajasi;
- Savodxonlik va ma'lumot darajasi;
- Daromad darajasi;
- Xususiy mulkka ega bo'lish darajasi;
- Yuqori turmush darajasi;
- Insonning jamiyatdagi o'rni.

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi hisob-kitoblari va ayrim ekspertlar va tadqiqotchilar baholashi bo'yicha hozirgi davrda 50 foiz, ayrim manbalarda esa turli uslublarga asoslangan holda undan ham ortiqroq aholi o'rta sinfga mansub deb hisoblashmoqda. 2030 yilga borib esa, 37 mln. mamlakat aholisining 60 foizi mazkur sinfga mansub bo'lishi va kam ta'minlanganlar soni esa deyarli ikki

⁵⁷ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish: 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2013 yil, 64-bet.

barobar qisqarishi bashorat qilinmoqda. Shuningdek, inson omilining asosi bo'lgan zamonaviy ta'lim tizimining o'rta sinf shakllanishi, ayniqsa, uning tarkibi yaxshilanishidagi o'rnini hisobga olib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni 60,9 mingdan 160 ming kishiga yetkazish, oliy ta'lim ko'lamini 10 foizdan 25 foizga ko'tarishni va mutaxassisliklar kesimidagi ustuvorlikni qayta ishlash sanoati tarmoqlari, xizmat ko'rsatishning murakkab sohalariga berishni va bu mutaxassisliklar bo'yicha bitiruvchilar hissasini oshirishni taklif qilishmoqda.⁵⁸


Keyingi yillarda dunyoning yetakchi mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda ham o'rta sinf va uning tarkibi takomillashuvi, investitsiya va inson kapitaliga, shu jumladan, ta'limga qo'yilgan mablag'larining oshishi, kichik biznes va uning mamlakat yalpi ichki mablag'idagi hissasining oshish ko'rsatkichlari tahlili qiyosiy o'rganilsa, bu ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro bog'liqliklar borligini ko'rish mumkin.

Bunday qiyosiy tahlillar O'zbekistonda o'rta sinfning jamiyatda yetakchi ijtimoiy tabaqa sifatida shakllanganligini, uning asosiy omillari, ya'ni investitsiyalarga, ayniqsa, inson kapitaliga mablag'larning oshayotganligini, kichik biznesning malakat YaIM da va kichik biznesda band bo'lgan iqtisodiy faol aholining hissalari oshayotganligi va ular rivojlanishi jarayonlari o'rtasida uzviy bog'liqliklarni ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotidagi bu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamik o'sishida uzviylik va barqarorlik, ayniqsa, jahon hamjamiyatidagi keyingi inqiroz va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishdagi va hozirgi murakkab sharotda jamiyat va milliy iqtisodiyotning barqaror, mutanosib o'sishining asosiy omili va vositasi bo'lgan o'rta sinf va kichik biznes mavqeini yanada oshayotganligini e'tirof etish lozim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, keyingi davrda mamlakatimizda bu muhim ko'rsatkichlar o'sish sur'atlari tahlili o'rta sinfning jamiyatdagi ulushi 2013 yilda 2000 yilga nisbatan qariyb 2,5 marta, shu

⁵⁸ Statistik to'plam "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyalari va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar". Toshkent, "O'zbekiston", 2011 y., 83-bet; Мухамедханова К. Социальная защита: на пороге нового этапа. «Экономическое обозрение», №1, 2014. Стр. 36-37

davrda esa kichik biznesning YaIM dagi hisssasi 1,8 barobar va kichik biznes sohasida iqtisodiyotda umumiy band bo'lganlarning ulushi esa 1,5 marta o'sgan. O'rta sinf tabaqasi ulushi ortishi, ayniqsa, uning tarkibi takomillashishida moddiy omillar, jumladan, investitsiyalar va ulardan bevosita kichik biznesga yo'naltirilgan kreditlarning hisssasi ahamiyatlidir. 2015 yilda faqat tijorat banklarining kichik biznes sub'yektlariga ajratgan kreditlari 9 trillion so'mdan ortiq bo'lib, oldingi besh yildagiga nisbatan qariyb 5 barobar oshgan.⁵⁹ Bu davrda kichik biznesga ajratilgan kreditlarning bank kredit qo'yilmalaridagi ulushining ham salmoqli oshishi, o'z navbatida, o'rta sinf mavqei o'sishiga, tarkibi takomillashishiga hissa qo'shgan (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga berilgan kredit va mikrokreditlar dinamikasi (mlrd.so'm)⁶⁰


Albatta, bu muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning bunday yuqori sur'atlarda nisbatan mutanosib o'sishida mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar, ular bo'yicha belgilangan maqsadli va aniq chora-tadbirlar dasturlari samarali ro'yobga chiqarilayotganligidir.

⁵⁹ "O'zR Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi – "Turkiston" gazetasi – 16.01.2016 yil.

⁶⁰ „O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2011 yillar) asosiy tendensiyalari va ko'rsatkichlari hamda 2012-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar“ statistik to'plami. – T.: „O'zbekiston“, 2013 y., – 25, 113 betlar.

Kichik biznes inson omilining mukammal shakli sifatida uning mo'jizaviy yaratuvchanlik salohiyati, tadbirkorligi, intellektual va ruhiy-fiziologik qobiliyatining dastlabki jamg'armasi sifatida namoyon bo'ldi. Innovatsiyaviy omil sifatida esa inson kapitali o'sishining amaliyotdagi o'rni juda muhim, individual va ijtimoiy o'sish nuqtai nazaridan esa eng samarali bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi hisoblanadi. Inson kapitaliga bo'lgan bunday investitsiyalar o'rta sinf va uning faol tadbirkorlik qismiga, pirovard natijada esa jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalarining real daromadlarining oshishiga, ularning yuqori turmush darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, ijtimoiy va inson kapitaliga bo'lgan investitsiyalar hajmi va sifati hamda o'rta sinf va uning kichik biznesni shakllantiradigan tadbirkorlik qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar va bir-birini taqozo qilishini mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jadallashtiruvchi omillar deb qaraladi. Jamiyat va iqtisodiy taraqqiyot uchun bunday o'zaro bog'liqlikni va bir-birini taqozo qilinishi va to'ldirishini quyidagicha ifodalash mumkin (2.2.2-chizma).



2.2.2-chizma. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ijtimoiy va inson kapitalariga investitsiyalar, o'rta sinf va tadbirkorlikning o'zaro bog'liqligi⁶¹

⁶¹T. Do'schanov, A. Do'schanov "Inson kapitalining o'rta sinf va kichik biznesni o'zaro bog'liqlikda rivojlanishiga ta'siri va ahamiyatining oshib borishi", - "Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, №2, 2015 yil; 5-bet.

Inson kapitali va ijtimoiy kapitali vositasida o'rta sinf va uning tarkibi takomillashadi, innovatsion kichik biznes yanada faollashadi, bu ijobiy jarayonlarning o'zaro ta'siri va aks ta'siri asosida shakllangan bog'liqlik, mutanosiblik va barqarorlik har birining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. O'rta sinf va uning faol qismining o'sib borayotgan moddiy, nomoddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun ajratilgan investitsiyalar, xususan, inson kapitali samarasi sifatida tabaqaning, ayniqsa, undagi faol kichik biznes vakillarining moddiy imkoniyatlari yanada oshadi. Ular tomonidan yig'ilgan jamg'armalar zamonaviy innovatsiyaviy investitsiyalar uchun yangi qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

2.3. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat budjeti va tijorat banklari kreditlari oshib borishi hamda ularning tahlili

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirish, uning rivojida tadbirkorlikning ulushini oshirish, ijtimoiy tadbirkorlikning barqaror faoliyatini ta'minlashda ushbu sohani moliyalashtirish tizimi va moliyalashtirish manbalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat budjeti. Mamlakatimizda ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida har yili hukumat tomonidan davlat dasturlari ishlab chiqiladi va ushbu dastur asosida muhim yo'nalishlar belgilab olinadi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun davlat budjeti xarajatlarining 60% ga yaqini sarf bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta moliyaviy ko'mak bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda, BMT ma'lumotlariga qaraganda, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar davlat budjetining 35 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda. Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes-maktablaridan biri – INSEAD tomonidan 2012 yilda inson kapitalining taraqqiyoti darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 53-o'rinni, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi, jumladan, ta'lim maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha esa dunyoda 5-o'rinni egalladi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin (2.3.1- jadval).

Tijorat banklari kreditlari. O'zbekistonda tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy rag'batlantirishning asosiy manbai ***tijorat banklari*** hisoblanadi. Hozirgi kunda tijorat banklari ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatini ochish, uning istiqbolini ta'minlash va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy moliyaviy institut bo'lib xizmat qilmoqda.

2.3.1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining xarajatlar dinamikasi (mlrd. so'm)⁶²

<i>Ko'rsatkichlar</i>		<i>2005 y.</i>	<i>2009 y.</i>	<i>2014 y.</i>	<i>2014 Yil</i>	
					<i>2005 yilga nisbatan o'zgarishi (marta)</i>	<i>2009 yilga nisbatan o'zgarishi (marta)</i>
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash		1783,9	5900,9	18490,8	10,4	3,1
<i>1.1</i>	Maorif	1764	3326,0	10673,5	6,1	3,2
<i>1.2</i>	Sog'liqni saqlash	636	1256,4	4507,2	7,1	3,6
<i>1.3</i>	Madaniyat va sport, OAV	71,5	126,2	361,5	5,1	2,8
<i>1.4</i>	Fan	28,9	62,6	187	6,5	3
<i>1.5</i>	Ijtimoiy ta'minot	20,7	46,4	126,2	6,1	2,7
<i>1.6</i>	Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan xizmatlar narxidagi farqni qoplash	14,5	—	—	—	—
<i>1.7</i>	Bolali va kam ta'minlanganlarga nafaqalar	350	1038,4	1805	5,2	1,7
<i>1.8</i>	NNT, NST va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish uchun mablag'lar va grandlar	—	—	8,2	8,2	8,2
2. Iqtisodiyot va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari		804,3	2119,1	4981,4	6,2	2,4
3. Davlat hokimiyati boshqaruv organlari, sud organlari hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xarajatlari		95	357,6	1414,2	14,8	4
4. Boshqa xarajatlar		825,9	1846,8	6530,5	8	3,5
Jami xarajatlar:		4884,1	15304,1	31425	6,4	2,1

Tijorat banklari kredit siyosatining bosh maqsadi – bank aktivlarining yuqori daromadlilikini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, kredit faoliyatini yuritish bilan bog'liq amaldagi iqtisodiy

⁶² X. Shodiyev "Moliya statistikasi". – Toshkent-2010, 104-bet.

"O'zbekiston raqamlarda" statistik to'plam, Toshkent 2015 yil, 27-bet.

me'yorlarga rioya qilinishini nazorat qilish, shuningdek, kreditlash tamoyillariga mos holdagi kredit portfelini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini amaliyotga tadbiiq etish hisoblanadi. *Kreditlar turli maqsadlarda* – boshlang'ich kapitalni shakllantirish, aylanma mablag'larni to'ldirish, asbob-uskunalar va texnologik jihozlar sotib olish, eksport-import operatsiyalari va hozirgi davrda aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan qator dasturlar asosida ijtimoiy sohani hamda bu sohada band bo'lgan ijtimoiy tadbirkorlarning faoliyatini moliyalashtirish maqsadida ajratilmoqda.

Yurtimizdagi iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik, biznes, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida keng ko'lamli ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Respublika hukumati tomonidan har bir mintaqada aholi va xo'jalik sub'yektlarini keng turdagi bank xizmatlari bilan ta'minlashga, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Xorazm viloyatidagi tijorat banklari tomonidan viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholining turmush farovonligini yuksaltirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali tadbiiq etayotgan qadim va hamisha navqiron ***Xorazm viloyatida*** ham turli sohalarda rivojlanish va yuksalishlar kuzatilayotgani quvonarli holdir. Viloyatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning chuqurlashtirilishi natijasida aholining banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, ularni ishonchli moliyaviy vositachiga aylantirish uchun zarur shart-sharoit yaratilgan. Buni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi boshchiligida amalga oshirilgan ishlar misolida ko'rish mumkin. Jumladan, viloyatdagi tijorat bank filiallari tomonidan kreditlar ajratish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalarni yo'naltirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Uy-joy qurilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 4-yanvarda qabul qilingan "2013 yilda qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi to'g'risida"gi PQ-1902-sonli qaroriga asosan

“Qishloq qurilish bank”, TIF Milliy bank va “Ipoteka bank” viloyatdagi filiallari tomonidan 2013 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida 730 ta yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi belgilab berilgan bo’lib, qurilishning umumiy narxi 94,9 mlrd. so’mni tashkil etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 6-dekabrdagi “Xorazm viloyati aholisining suv ta’minotini va shart-sharoitlarini tubdan yaxshilash, Urganch shahri bosh planini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1874-sonli Qaroriga muvofiq Urganch shahrining Al-Xorazmiy ko’chasida 7 ta tijorat bankining viloyatdagi filiallari tomonidan 9 ta ko’p qavatli uy-joy binolari va 1 ta bank binosining qurilishi rejalashtirilgan bo’lib, shundan bugungi kungacha “Ipoteka banki” tomonidan 2 ta va “Mikrokreditbank” tomonidan 2 ta ko’p qavatli uylar qurib foydalanishga topshirildi. Ushbu 9 ta ko’p qavatli uy-joy binolarini xonadonlari soni jami 321 ta bo’lib, ularning birinchi qavatli 69 ta savdo va maishiy xizmat ko’rsatish do’konlariga mo’ljallangan.

Shuningdek, Yangi Urganch, G’alaba va Yangiariq ko’chalarida ham tijorat banklarining kredit mablag’lari hisobidan 19 ta zamonaviy 32 xonadonli uy-joy qurilishi boshlab yuborildi. Xususan, “Ipoteka bank” tomonidan 4 ta, Milliy bank, “Xalq banki”, “Asaka banki”, “O’zsanoatqurilishbank” tomonidan 3 tadan, “Agrobank” tomonidan 2 ta va “Aloqabank” tomonidan 1 ta ko’p qavatli uy-joylar qurish rejalashtirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Viloyatda tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub’yektlarini moliyaviy qo’llab-quvvatlash, moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, kreditlash hajmining o’sishi ichki bozorni iste’mol mollari bilan to’ldirishga, aholi bandligini oshirishga va shu orqali ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash hajmining o’rtacha 1,3 barobardan kam bo’lmagan miqdorda o’sishi ta’minlanmoqda.

Xususan, 2015 yilda KBXT sub’yektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2014 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 493,9 mlrd.so’mni tashkil etdi va belgilangan

reja 102,9 foiz qilib bajarildi. Shundan 140,4 mlrd.so'm miqdoridagi kreditlar *mikrokreditlardir*. Ajratilgan kredit mablag'lari hisobiga 9 mingdan ziyod ish o'rni yaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlariga muvofiq, 2015 yil mobaynida viloyat tijorat banklari tomonidan:

- Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga – **611,4 mlrd.so'm;**
- Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirishga – **16,0 mlrd.so'm;**
- Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga – **14,9 mlrd.so'm;**
- Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga – **62,1 mlrd.so'm;**
- Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadlariga **53,6 mlrd.so'mlik** kredit mablag'lari ajratildi.

Viloyatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hududiy dasturlarga qaratilgan loyihalarni bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish bo'yicha ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2015 yilda 763 ta loyihalarga 300,7 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Yuqorida keltirilgan raqamlarni taqqoslash usuli bilan ifodalashga va tahlil qilishga harakat qilamiz. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan viloyat tijorat banklarining ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash va shu yo'l bilan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini banklar tomonidan ajratilgan kredit mablag'larining umumiy summasi orqali ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval.


Xorazm viloyati tijorat banklari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ajratilgan kredit mablag'lari (mln.so'm)⁶³

No	Ko'rsatkichlar	2015 yil 1-yanvar	2016 yil 1-yanvar	Farqi (+,-)
1.	Joriy yilda berilgan kreditlar	708903	857889	121%
	<i>Shu jumladan:</i>			
	Real sektorga	468201	611446	130%
2.	Kichik biznesga berilgan kredit miqdori	365661	493874	135%
	Yaratilgan ishchi o'rin soni (ta)	15827	9043	57%
	Kichik biznesga ajratilgan mikrokreditlar	106352	140425	132%
	Tadbirkor ayollarga ajratilgan kreditlar	47699	62050	130%
	Xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishga ajratilgan kreditlar	40985	53635	131%
	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga berilgan kreditlar	11679	14916	127%
2.	Kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar	12067	16035	133%
3.	Ajratilgan iste'mol kreditlari	23459	28227	120%
4.	Ajratilgan ipoteka kreditlari	125781	139898	111%
	<i>Shu jumladan:</i>			
	Yosh oilalarga	28919	27366	94%

Kichik biznes sub'yektlariga ajratilayotgan mikrokreditlar miqdori ham yildan yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. Buni biz alohida banklar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Quyidagi grafik orqali viloyat tijorat banklari tomonidan

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi ma'lumotlari


kichik biznes sohasiga ajratilayotgan mikrokreditlar miqdorining jamiga nisbatan foizli ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. Xorazm viloyati tijorat banklari tomonidan 2015-yilda kichik biznes sub'yektlariga ajratilgan mikrokreditlar miqdori (mlrd.so'm)⁶⁴

Endilikda tumanlar kesimida KBXT ga ajratilgan mikrokreditlarning umumiy miqdorini ko'rib chiqamiz (2.3.2-rasm).

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi ma'lumotlari




2.3.2-rasm. Xorazm viloyati tumanlarida 2015 yilda KBXT sohasiga ajratilgan mikrokreditlar miqdori (mlrd.so'm)⁶⁵

Prezidentimizning 2010 yil 28-iyuldagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni talablari asosida ta’lim muassasalari, ayniqsa, ***kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalarini*** moliyalashtirish, ularga moliyaviy xizmatlar ko’rsatish ko’lamlari oshib bormoqda (4 va 5- ilovalar).

Shuningdek, viloyat tijorat banklari tomondan oilani yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning oialadagi va jamiyatdagi o’rnini hamda mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, xotin-qizlarning bandligini ta’minlash maqsadida ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish maqsadida 2015 yilda ***ayollar tadbirkorligini*** qo’llab quvvatlash maqsadida 62,0 mlrd.so’m miqdorida kredit mablag’lari ajratilgan (6-ilova).

⁶⁵ O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi ma’lumotlari


Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan **oilaviy tadbirkorlik** faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapitalga kredit berish, mikro kreditlar ajratishni kengaytirish bilan avval faqat "Mikrokreditbank" shug'ullangan bo'lsa, 2012 yildan boshlab, viloyatimizning barcha tijorat banklari tomonidan ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda (2.3.3-rasm).



2.3.3-rasm. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2015 yilda ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd.so'm)⁶⁶

Tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hisobiga 2015 yilda viloyatimiz tumanlarida jami 698 ta yangi ish o'rni yaratildi. Buni quyidagi diagramma ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin (2.3.4-rasm).

⁶⁶O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi ma'lumotlari



2.3.4-rasm. Ajratilgan kreditlar hisobiga 2015 yilda Xorazm viloyati tumanlarida yaratilgan ish o'rinlari⁶⁷

Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi ijtimoiy tadbirkorlik, jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, ayollar tadbirkorligi va yosh tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida barcha tijorat banklarida o'ziga xos barqaror mexanizm yaratilgan. Viloyat tijorat banklarining tadbirkorlik sohasi rivojiga qo'shayotgan hissasi jamiyat farovonligini ta'minlovchi asosiy omillar, ish bilan bandlik darajasi va aholi daromadlari darajasining oshishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Yaqin istiqbolda moliya-bank tizimi va kredit munosabatlari tizimida amalga oshirilayotgan bu kabi qator islohotlar va natijaviy ko'rsatkichlari, bizningcha, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari, shu jumladan tadbirkorlik, ayniqsa, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun o'ziga xos tayanch sifatida namoyon bo'ladi hamda aholi farovonligi va turmush darajasini yanada yaxshilashga, ijtimoiy muammolarini hal qilishga, umumiy rivojlanish ko'rsatkichlariga erishishga imkon yaratadi.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

II BOB BO'YICHA XULOSA

Mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini boshlagan va bu sohaga kirish arafasida turgan tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar, davlat grandlari ajratish, davlat budjetining ushbu sohaga ajratayotgan moliyaviy mablag'larining dinamik ko'rsatkichlari bilan tanishib chiqish, ijtimoiy sohaga ajratilayotgan investitsiyalar miqdorini oshirish, buning uchun hududning investitsion jozibadorligini kuchaytirish kabi masalalar davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hisoblanadi.

Tadqiqot davomida erishilgan natijalarni umumlashtirgan holda, olingan qisqacha *xulosalar* quyidagilardan iborat:

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirish, uning rivojida tadbirkorlikning ulushini oshirish, ijtimoiy tadbirkorlikning barqaror faoliyatini ta'minlashda ushbu sohani moliyalashtirish tizimi va moliyalashtirish manbaalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik kapitalini shakllantirishda, ayniqsa, endigina bu faoliyatni boshlash arafasida turgan yosh tadbirkorlarga moliyaviy hamda moddiy ko'mak berishda yurtimizdagi bank-moliya tizimining o'rni beqiyosdir. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarning asosiy faoliyati *banklar* bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat ko'p jihatdan banklar yordamida amalga oshadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik korxonalari, shu jumladan, ijtimoiy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyati jarayonida turli banklar bilan iqtisodiy munosabatda, muomalada bo'ladilar.

Yaqin istiqbolda moliya tizimi va kredit munosabatlari tizimida amalga oshirilayotgan qator islohotlar va natijaviy ko'rsatkichlar tadbirkorlik, ayniqsa, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun o'ziga xos tayanch sifatida namoyon bo'ladi hamda aholi farovonligi va turmush darajasini yanada yaxshilashga, ijtimoiy muammolarini hal qilishga, umumiy rivojlanish ko'rsatkichlariga erishishga imkon yaratadi.

III BOB. Ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va uning yo'nalishlari

3.1. Kichik biznes sohasida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish va undagi iqtisodiy-moliyaviy muammolarni bartaraf etish uchun hozirda hukumatimiz tomonidan ko'plab loyihaviy va dasturiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy sohaning rivoji xalq farovonligini ta'minlovchi dastak hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy tizimda bu maqsadlarga erishishda tadbirkorlik va davlatning o'zaro iqtisodiy-moliyaviy hamkorligi eng samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat xarajatlarining samarali moliyalashtirilishi natijasida ijtimoiy infratuzilmaning barqaror faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi ta'minlanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohaning rivojiga katta hissa qo'shayotgan, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgan, eng asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan bandlik darajasi va aholi daromadlarining o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri ***kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*** sohasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish sharoitida aholining umumiy bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish hamda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati muhimdir. Chunki bu tarmoqda band bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari o'z mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda o'z daromadlarini oshirish bilan birga jamiyatning boshqa a'zolarini ham ish hamda daromad bilan ta'minlanishiga moddiy asos yaratadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor

berilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasi davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejimli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga tez moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bugungi kunda sayyoramizdagi barcha aholining taxminan 85 foizi istiqomat qiladi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligida mehnatga layoqatli aholining 70-90 foizi kichik va o'rta biznes bilan mashg'uldir.

Hozirgi davrda kichik va o'rta biznes aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashuvchanlik darajasini oshirishda potensial samarali vositadir. Fuqarolarga nafaqat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishga imkon yaratib, u o'rta sinf – jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi. Bu soha bilan shug'ullanuvchi shaxs bandlik va daromadga, o'z kelajagini yaxshiroq boshqarish imkoniyatiga, o'z ishini topish, o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini namoyon qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Shunday qilib, ***zamonaviy biznes faoliyati*** – jamiyatning daromad manbai hisoblanuvchi asosiy vosita bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishni tashkil etuvchi xo'jalik sub'yektlari va tashkilotlar, tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar tizimini ifodalaydi. Biznes va tadbirkorlik tushunchalarining asosiy farqi shundaki, tadbirkorlik faoliyati tashabbuskorlik va novatorlikka asoslangan bo'ladi, biznes sohasi esa iqtisodiyotdagi mavjud mexanizmlar orqali ish yuritadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, ***tadbirkorlik (предпринимательство, enterprise)*** – bu mulkchilik sub'yektlarining foyda

olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir.⁶⁸

„Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga muvofiq „**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)**“ tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir“⁶⁹.

Bugungi kunda dunyoda tadbirkorlikning umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. AQSHlik olim, professor Robert Xizrich tadbirkorlikka shunday deb ta'rif beradi: „Tadbirkorlik – bu qiymatga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayonidir. Tadbirkor esa shu narsani yaratish uchun o'zining bor vaqti va kuchini sarflaydigan, o'z gardaniga moliyaviy, ruhiy, ijtimoiy ma'suliyatni oluvchi, o'z ishining natijasi sifatida katta mukofotga ega bo'luvchi insondir“⁷⁰. Avstriyalik mashhur iqtisodchi olim Y.Shumpeterning fikricha, „Tadbirkor bo'lish – bu boshqalar qilayotgan ishni qilmaslik va qilgan taqdirda ham ana shu ishni boshqalarnikidek tarzda qilmaslikdir“⁷¹.

Bizga ma'lumki, tadbirkorlik qaysi sektorda amalga oshirilishiga qarab, 2 turga ajraladi:

a) davlat tadbirkorligi;

b) xususiy tadbirkorlik.

Davlat tadbirkorligi amaldagi qonunlarga mos ravishda davlat mulkini boshqarish kafolatiga ega bo'lgan davlat boshqaruv organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan ta'sis etilgan korxonalar nomidan iqtisodiy faollikni amalga oshirish shaklidir.

Xususiy tadbirkorlik biror xususiy korxona (agar u shunday shaklda ro'yxatga olingan bo'lsa) yoki tadbirkor (ishchi kuchini yollamasadan, yakka tadbirkor,

⁶⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. M.: „Rus tili“, 1981 y., 111-b.


⁶⁹ „Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. „Biznes konsultant“ iqtisodiy, amaliy-ommabop oylik jurnali, №5-6, 2012. –37-b.

⁷⁰ T. Do'stjanov, S. Salayev – „Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari“ o'quv qo'llanmasi. – T.: „IQTISOD VA MOLIYA“, 2006. – 243-b.

⁷¹ Бусыгина А.В. – „Предпринимательства“. М.: „Инфра-М“, 1997. – с-14.

mikrofirma) nomidan iqtisodiy faollikni amalga oshirish shaklidir. Bu ikki tadbirkorlik turi o'zining farqli xususiyatlariga ega bo'lsada, o'z navbatida amalga oshirilish tamoyillari bir-biri bilan mos tushadi.

Tadbirkorlikning yuqoridagi asosiy shakllarini chizmada quyidagicha ifodalash mumkin (3.1.1-chizma):



3.1.1-chizma. Tadbirkorlikning ikki asosiy shakli⁷²

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiyotdagi, ijtimoiy hayotdagi roli uning xalqaro va milliy bozorda sof raqobat muhitini yaratish, yirik korxonalar va tashkilotlar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, ishchi o'rinlari yaratib, asosiy va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor mexanizmini amalga oshirilishining izchilligini muntazam nazorat qilish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, innovatsion texnologiya va xomashyo-resurlarini ishlab chiqarishga jalb qilish, davlat budjetining asosiy daromad manbai hisoblanmish soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirish, daromad darajasiga qarab toifalanuvchi ijtimoiy sinflar o'rtasidagi nisbiy muvozanatni ta'minlash kabi bir qator faktorlarning amaliy va ilmiy jihatdan amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi hissasi quyidagi tarmoqlarda namoyon bo'ladi:

⁷² S. Salayev, N. Fayzullayev, J. Atayev, D. Saidov, M. Gulmonov – „Tadbirkorlik asoslari“ o'quv qo'llanmasi. T.: „Fan va texnologiya“, 2012. – 18-b.

- ro'yxatga olingan, shuningdek, haqiqatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonidagi hissassi;
- YaIMda, sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hissassi;
- iqtisodiyotda band aholi sonidagi hissassi;
- eksport mahsuloti hajmidagi hissassi.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelmoqda. Jumladan:

1. Ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
2. Iqtisodiyot innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
3. Ishlab chiqarish faoliyati yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
4. Davlat budjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliqlarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
5. Ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);
6. Yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakat barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning asosi. Ushbu yo'nalishlar har mamlakatda turlicha shakllangan (3.1.1-jadval).

Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi, aholi bandligini oshirish, turmush darajasini yaxshilash kabi tadbirlar, o'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'lanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 16-yanvar kuni 2015-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilda iqtisodiy hayotning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilashga bag'ishlangan yig'ilishida tadbirkorlik sohasiga yanada erkinlik yaratish va shu orqali aholining ish bilan to'liq bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi. Oxirgi 15 yil ichida *kichik*

tadbirkorlikda band bo'lganlar iqtisodiyotda jami band bo'lgan aholining 77 foizini yoki $\frac{3}{4}$ qismini tashkil etmoqda.⁷³

3.1.1-jadval.

Jahonning ayrim mamlakatlarida kichik biznesdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari⁷⁴

№	Kichik biznesdan foydalanish yo'nalishlari	Mamlakatlar
1.	Ishsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarning keskinligini pasaytiruvchi omil	Hindiston, Albaniya, Braziliya
2.	Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlashuv, o'rta sinfning tarkib topishi	Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya
3.	Retsessiyani bartaraf etish	Isroil, AQSH
4.	Yangi bozorlarni barpo etish	Meksika, Kanada, Singapur, Yaponiya
5.	Islohotlarni izchil amalga oshirish	Xitoy, Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, *yalpi ichki mahsulotni* shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda **56,7 foizni** tashkil etdi yoki 2000-yilga nisbatan 25 foizga o'sdi. Jahon moliya institutlari xulosasiga ko'ra, bu natija dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekanini ta'kidlash lozim. Albatta, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda, masalan, AQSH da 75-82 foizni, Yaponiyada 81 foizni, Italiyada 74 foizni tashkil etadi. Respublikamizda kichik

⁷³ "O'zR Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi – "Turkiston" gazetasi – 16.01.2016 yil, № 5, 2-bet.

⁷⁴ 2013 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014 yilda mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. <http://www.cbu.uz/uzc/node/42573>

korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji, o'z navbatida, mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Kichik biznes tadbirkorni daromad bilan ta'minlash manbaidir, ushbu sohaning rivoji tadbirkorning daromadi oshishidan darak beradi. Daromad oshgani sari tadbirkor o'z sarmoyasini faoliyatni kengaytirishga sarflaydi, ish o'rinlari yaratadi va asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan ishsizlik darajasini oz bo'lsada kamayishiga hissa qo'shadi. Yuqori sarmoya egasi bo'lgan tadbirkorlar o'z mablag'larini notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ularning ijtimoiy loyihalarini moliyaviy ta'minlaydilar. Shuningdek, mamlakatning ijtimoiy ta'minotga muhtoj sohalari (bolalar uyi, qariyalar uyi, nogironlarni parvarishlash markazlar va boshqalar) hayr-ehson sifatida o'z daromadlarining bir qismini ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini yangilash, oziq-ovqat va dori-darmon ta'minotini yaxshilash singari bir qator ijtimoiy maqsadlarga sarflashlari mumkin. Tadbirkorlarning ijtimoiy muammolarni o'z faoliyati orqali bartaraf etishga urinishlari, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida tadbirkorlar orasida o'ziga xos imidjga aylanib bormoqda. O'zbekistonda endigina kurtak yozayotgan ijtimoiy tadbirkorlik sohasida tadbirkorlik va ijtimoiy faollikni o'zaro bog'lovchi mexanizm hali to'liq shakllangani yo'q. Ijtimoiy ta'minotda hamon davlat yetakchi bo'lib qolmoqda. Yosh tadbirkorlarni ijtimoiy muammolarga jonkuyarlik ruhida tarbiyalash, tadbirkorlik foydasini ijtimoiy samaradorlikka yo'naltirish, KBXT va ijtimoiy farovonlik darajalarini o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish, nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT), tadbirkorlar va moliya tashkilotlari (tijorat banklari, kredit uyushmalari) o'rtasida ijtimoiy hamkorlik (sheriklik) tizimini shakllantirish kabi chora-tadbirlar, bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.


3.2. Ijtimoiy sherikchilikning jamiyat ahamiyatiga molik loyihalarini monitoring qilish yo'nalishlari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatining turli sohalarini huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy-texnik qo'llab-quvvatlash choralari yaxlit tizimidan iborat milliy model shakllantirildi. Ushbu jarayonda ijtimoiy sherikchilik amaliyotidagi dolzarb vazifalardan biri – ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni monitoring qilish yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llash masalalarini o'rganishning kerakligi masalasi ko'tarildi.

Mazkur jarayonda moliyaviy mablag'lar manbalarini shakllantirish va taqsimlashning eng muhim demokratik tamoyillari va xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy tizimining mamlakatimiz budjeti hisobidan "uchinchi sektor" ni qo'llab-quvvatlashning mustaqil tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Uning amaliy natijasi NNT bilan davlat tashkilotlarining o'zaro ijtimoiy sherikligi asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqilayotganligi va amalga oshirilayotganligi, gumanitar muammolarning hal etilayotganligi, mamlakat aholisi turli qatlamlarining manfaatlarining himoya qilinishi, fuqarolarning huquq va erkinligi ta'minlanayotganligida yanada yaqqalroq ko'rinmoqda.

Ijtimoiy hamkorlik rivojlanishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'larni taqsimlash, shu bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarning samaradorligini oshirish, taqsimlangan mablag'lardan to'g'ri va oqilona foydalanishga ko'maklashish, loyihalarni amalga oshirilishi natijalarini monitoring qilish vazifalari ham amalga oshirilishi lozim. Quyida O'zbekistonda 5 yil mobaynida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) sonining o'sish dinamikasini ko'rib chiqamiz (3.2.1-rasm).




3.2.1-rasm. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) sonining o'sish dinamikasi⁷⁵

Grafik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, NNT larning o'sish ko'rsatkichlari 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 1,3 barobarga, 2011 yilga nisbatan esa 1,1 barobarga o'sgan.

Endi ushbu tashkilotlarning moliyalashtirish manbalarini raqamli ko'rsatkichlar orqali ko'rib chiqamiz (3.2.2-rasm).

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi ma'lumotlari asosida. Elektron manbaa: www.fundngo.parliament.uz//




3.2.2-rasm. Davlat budjeti hisobidan ajratilgan mablag'lar miqdorining o'sish dinamikasi (mlrd.so'm)⁷⁶

NNT lariga ajratilgan davlat budjeti mablag'lari 7 yil mobaynida 2,7 barobarga oshganligini grafik ma'lumotlari tasdiqlab turibdi.

NNT va fuqarolik jamiyati faoliyatiga davlat budjetidan tashqari subsidiyalar, davlat grandlari va ijtimoiy buyurtmalar shaklida ajratilgan mablag'lar soni ham ancha yuqori. Buni quyidagi ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin (3.2.3-rasm).

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi ma'lumotlari asosida. Elektron manbaa: www.fundngo.parliament.uz//



3.2.3-rasm. 2008-2013 yillarda NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori⁷⁷

Ijtimoiy hamkorlik monitoringini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash Fond mablag'larining samarali tarzda taqsimlanishini tashkil etish, NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining takliflarini chuqur o'rganish asosida mintaqalarning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etishga, fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga qaratilgan istiqbolli, ijtimoiy va umumahamiyatga molik dasturlar hamda loyihalarni moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Fond mablag'larini taqsimlashda ochiq-oshkoralikni ta'minlash, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlashda faol ishtirok etishi masalalarini muhokama qilishga keng jamoatchilikni jalb etish;

⁷⁷O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi ma'lumotlari asosida. Elektron manbaa: www.fundngo.parliament.uz//

- Fond mablag'laridan belgilangan maqsadda va samarali foydalanish, u tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar hamda dasturlar, shu jumladan, NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining moliyaviy mustaqilligi hamda barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan loyihalar va dasturlar ustidan nazoratni (monitoringni) amalga oshirish;
- Eng muhim ustuvor dasturlar va loyihalarni, ijtimoiy va umumahamiyatga molik boshqa dastur va loyihalarni amalga oshirishda NNTning mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorligini chuqurlashtirishga, ijtimoiy hayotni demokratlashtirishda NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining rolini kuchaytirish jarayonlariga ko'maklashish;
- NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining erkin hamda mustaqil rivojlanishini taminlaydigan normative-huquqiy bazani, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- Qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa vazifalar.

Monitoring olib borish, NNTning tanlovlarda ishtirok etish jarayonidan boshlanib, bir necha bosqichda amalga oshiriladi. *Birinchi bosqichda*, tanlov talablariga muvofiq, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat ro'yxatida hisobda turganligi, loyihalarning dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati, maqsad va vazifalari, loyiha qaysi ijtimoiy qatlamga (maqsadli guruhga) qaratilganligi va uning ko'lami aniqlanadi. Loyihada muammoning aniq qo'yilganligi va uning to'liq yoki qisman hal etilishi, joylarda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik o'rnatilishi va shu kabi boshqa qator jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Monitoringni amalga oshirishning ikkinchi bosqichini sifatli tashkil etish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishi monitoringini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha Parlament komissiyasi huzurida yig'ma axborot tahlil guruhlari tashkil etiladi. Bu bosqichda NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining birlashma va uyushmalari joylardagi davlat organlari bilan birgalikda loyihani amalga oshirayotgan fuqarolik jamiyati


institutlariga turli xildagi amaliy va uslubiy yordam ko'rsatadi, ijtimoiy sheriklik asosida loyihani amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar o'rganiladi.

Monitoring natijalari bo'yicha "Monitoring dalolatnomasi" tayyorlanadi. Dalolatnoma monitoring natijalarini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Dalolatnomada loyihani amalga oshirish jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, xarajatlar smetasida ko'rsatilmagan shaklda ishlatilgan Fond qaytarilishi lozim bo'lgan mablag'lar summasi, shuningdek, NNT faoliyatini yanada yaxshilash uchun Yig'ma axborot tahlil guruhlarining taklif hamda tavsiyalari bayon etiladi.

Monitoring o'tkazish jarayonining oxirgi bosqichida eng dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish jarayonida, ayniqsa davlat ijtimoiy buyurtmalari, davlat subsidiyalari amalga oshirilishining borishi bo'yicha hisobotlar eshitilib boriladi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini matbuotda keng yoritishda muhim ahamiyatga bo'lgan OAV bilan ishlash, yaratilgan intellektual ishlanmalarni, loyihani amalga oshirish yakuni bo'yicha taqdim etiladigan hisobotlarni rasmiylashtirishni yanada yaxshilash o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Quyida 2013 yilda NNTlariga ajratilgan mablag'larning dinamik tahlilini ko'rib chiqamiz (3.2.4-rasm).



3.2.4-rasm. 2013 yilda ijtimoiy hamkorlikka pul mablag'larining taqsimlanishi⁷⁸

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami mablag'larning (7 mlrd. so'm) asosiy qismi, ya'ni 46,9 foizi davlat grantlari hisobiga shakllangan.


Endilikda NNTda tadbirkorlik faoliyati orqali to'playdigan daromadlarining tarkibini quyidagi chizma orqali ko'rib chiqamiz (3.2.1-chizma).

NNTlarning daromadlarini shakllantirish va mablag'larini jamg'arish ilmiy asosga va fanlararo predmatga ega. Jahon ilmiy adabiyotlarida bu "*Fandrayzing*" deb talqin qilinadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda (fund – mablag', moliyalashtirish, raise – manzil, to'plam) mablag'lar to'plami yoki moliyalashtirish manzili degan ma'noni anglatadi.

Fandrayzing – bu nodavlat-notijorat tashkilotlarini (NNT) rivojlantirish strategiyasining bir qismi bo'lib, donor tashkilotlari va ularning realizatsiyalari uchun loyihalar tayyorlash, davlat hukumati organlari va biznes sub'yektlari bilan ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash vositasidir.

Samarali ijtimoiy hamkorlik uchun qulay budjet-moliya va huquqiy asosni yaratish NNTlarining iqtisodiy barqarorligi hamda moddiy-texnik va moliyaviy ta'minotiga oid milliy qonunchilik tizimini tahlil qilish va o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi ma'lumotlari asosida. Elektron manbaa: www.fundngo.parliament.uz/



3.2.1-chizma. NNTlarning tadbirkorlik faoliyati orqali shakllangan daromadlar tasnifi⁷⁹

Xorazm viloyatida NNTlaridan biri bo'lgan “Komolot” YIHning faoliyati va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi ahamiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. “Komolot” YIH mana bir necha yildirki o'zining ijtimoiy muammolarni hal qilishga, yoshlarni ish bilan ta'minlash, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ayollarning bandligini oshirish, yosh oilalarni na'munali uy-joylar bilan ta'minlash


⁷⁹ Зикирллаева Н.А., Тураев А.Т. «Социальное партнерство: формирование средств бюджета ННО и других институтов гражданского общества – важный фактор либерализации экономических отношений и социально-экономического развития», «Экономика и финансы» научно-практический журнал, №4, 2014; ст 18.

kabi bir qator loyihalarni ishlab chiqmoqda hamda ushbu loyihalar asosida o'z faoliyatini kengaytirmoqda. Xususan, 2014 yilda ushbu tashkilot tomonidan "Mening biznes g'oyam" loyihasi ishlab chiqilib, uning asosida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yoshlarning biznes rejalarini qabul qilish tanlovi o'tkazildi va tanlovda g'olib bo'lganlarga biznes rejada ko'rsatilgan summadagi mablag'lar imtiyozli kredit sifatida viloyat tijorat banklari tomonidan kam foiz stavkalarida berildi. Viloyat bosqichida tanlov g'oliblariga (36 ta ishtirokchi) jami 465 mln. 350 ming so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar bilan ta'minlashda "Mikrokredit bank", "Agro bank", "Qishloq qurulish bank", "O'zsanoatqurulish bank" ATBlar, DTB "Xalq bank", TIF "Milliy bank", "ipoteka bank" ATIB hamda "Asaka bank" OAJlarning hududiy (mintaqaviy) bo'limlari o'zlarining kredit mablag'lari bilan ishtirok etishdi. Foiz stavkalari 3-9 foizni tashkil etdi. Respublika bosqichida jami 28 ta ishtirokchi g'olib deb topilib, ularga 175 mln. 390 ming miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Bularning bari yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ayollarning bandligini oshirish va shu asosda KBXTni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy maqsadli dasturlardir.

Bundan tashqari, ta'lim sohasini yaxshilash, talabalarni ijtimoiy himoya qilishda "Komolot" YIH o'z loyihalarini ishlab chiqqan. Xususan, harbiy xizmatni o'tagan, to'lov shartnomasi asosida o'qishga qabul qilingan talabalarning shartnoma summasining 35% gacha to'lab berish imtiyozi O'zbekiston "Komolot" yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining 2015 yil 23-apreldagi 01-03/62-sonli qaroriga asosan amalga oshiriladi. Jumladan, 2014-2015 o'quv yilida Urganch Davlat universitetiga harbiy xizmatni o'tab, tavsiyanomani qo'lga kiritgan, to'lov shartnomasi asosida o'qishga qabul qilingan 193 ta talabaning shartnoma summasining 35% i ya'ni 342 mln.ga yaqin mablag'ini to'lashni "Komolot" YIH o'z zimmasiga oldi. Uning ushbu imtiyozi talaba yoshlarning oliy ta'lim olish, intellektual salohiyatini oshirish uchun moliyaviy ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

2015 yilda jamiyatda faol ishtirok etayotgan, fan, madaniyat va sport sohalarida yuksak natijalarga erishayotgan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga doir

“Na’munali uy-joylar berish” loyihasi ham ishlab chiqildi. Ushbu loyiha asosida ko’p qavatli turar joylar ham barpo etilmoqda (3.2.5-rasm). Tanlov g’oliblariga 100-103 mln. miqdoridagi imtiyozli kreditlar 20 yil muddatga 9% stavkada “Asaka bank” OAJning viloyatdagi filiali tomonidan ajratiladi. Imtiyozli jihati shundaki, dastlabki 5 yilida faqatgina kreditning foizi to’lanadi. Bu kabi qator imtiyozlar yosh oilalarning jamiyatda o’z o’rnini topishida, turmush sifatini yaxshilashda va ushbu yo’l orqali ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy turtki vazifasini bajaradi.



3.2.5-rasm. 2016 yilda “Komolot” YIH tomonidan qurilayotgan na’munali uy-joylarning tumanlar bo’yicha taqsimlanishi (ta)⁸⁰

Respublikamiz viloyatlarida faoliyat yuritayotgan “uchinchi sektor” hamda davlat organlari vakillariga davlat dasturlari, loyihalarni tayyorlash, amalga oshirish jarayonida ijtimoiy sherikchilikni keng ko’lamda qaror toptirish borasida ularga yaqindan uslubiy ko’mak beradilar. Bugungi kunda joylarda fuqarolarimiz va NNT ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ularni sherik qilib olish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo’llab-quvvatlashning jahon tajribasida kamyob bo’lgan milliy modelimiz imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

⁸⁰ O’zbekiston “Komolot” YIHning Xorazm viloyati bo’limi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

III BOB BO'YICHA XULOSA

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish va undagi iqtisodiy-moliyaviy muammolarni bartaraf etish uchun hozirda hukumatimiz tomonidan ko'plab loyihaviy va dasturiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy sohaning rivoji xalq farovonligini ta'minlovchi dastak hisoblanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohaning rivojiga katta hissa qo'shayotgan, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgan, eng asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan bandlik darajasi va aholi daromadlarining o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi hisoblanadi. KBXT sohasini rivojlantirish va bu orqali tadbirkorlikni ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish, ijtimoiy tadbirkorlikning yo'nalishlarini belgilab olish tadqiqotlarimizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tadqiqot davomida erishilgan natijalarni umumlashtirgan holda, olingan qisqacha *xulosalar* quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda endigina kurtak yozayotgan ijtimoiy tadbirkorlik sohasida tadbirkorlik va ijtimoiy faollikni o'zaro bog'lovchi mexanizm hali to'liq shakllangani yo'q. Ijtimoiy ta'minotda hamon davlat yetakchi bo'lib qolmoqda. Yosh tadbirkorlarni ijtimoiy muammolarga jonkuyarlik ruhida tarbiyalash, tadbirkorlik foydasini ijtimoiy samaradorlikka yo'naltirish, KBXT va ijtimoiy farovonlik darajalarini o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish, nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT), tadbirkorlar va moliya tashkilotlari (tijorat banklari, kredit uyushmalari) o'rtasida ijtimoiy hamkorlik (sheriklik) tizimini shakllantirish kabi chora-tadbirlar, bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy farovonlikni oshirish yo'llari va usullari to'g'risidagi ilmiy va huquqiy savodxonligini oshirish, bu borada maxsus o'quv va amaliyot kurslarini tashkil etish, ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha jahonning ilg'or tajribalarini manba sifatida o'rganib chiqish tadbirkorlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining yangi bosqichi bo'lgan ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotida uning muhim omillaridan bo'lgan tadbirkorlik ham milliy iqtisodiyot va jamiyat oldida turgan dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishning zarur va muhim omili sifatida ijtimoiylashib borishi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlikning bu muhim yo'nalishi sifatida ijtimoiy tadbirkorlik mamlakatimizda va xorijiy rivojlangan mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilish omili deb qaralmoqda va chuqur o'rganilmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdan asosiy maqsad ushbu soha rivojiga hissa qo'shish, mavjud muammolarning yechimi hamda ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy yo'nalishlari haqida to'g'ri xulosa va takliflar berishdan iboratdir.

Tadqiqotimiz davomida erishilgan natijalarni umumlashtirgan holda, olingan qisqacha *xulosalar* quyidagilardan iborat:

1. *Ijtimoiy tadbirkorlik* – bu ijtimoiy muammolarning innovatsion yechimini olib borish jarayoni. Shuningdek, *ijtimoiy tadbirkorlik* – bu jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tadbirkorlik orqali bartaraf etish faoliyati.

Ijtimoiy tadbirkor – ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan va ularga innovatsion yechim topadigan tashabbuskor, tadbirkor shaxs. Aksariyat tasniflarga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy qiymatni yaratish va qo'llab-quvvatlash vazifasini ham o'z zimmasiga oladilar. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan sub'yektlar nodavlat va notijorat sohalariga tegishli bo'lgan hamda turli tashkilotlarda amal qilayotgan tadbirkorlik faoliyatining bir qancha tasnifiy turlarining ro'yxatini tuzib chiqqanlar. Xususan, katta va kichik, eski va yangi, diniy va dunyoviy, foydali, foydasiz va aralash kabi tasniflarni keltirib o'tishimiz mumkin.

2. *Ijtimoiy biznes* – bu ijtimoiy muammolarni tez hamda tejamli tarzda hal etishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Bu tushuncha termin sifatida ilk marotaba Nobel Mukofoti lauriyati, professor Muhammad Yunus tomonidan qo'llanilgan va uning “Dunyoni kambag'alliksiz yaratish”, “Ijtimoiy biznes, kapitalizmning kelajagi va

ijtimoiy biznesni yaratish”, “Insoniyatning ehtiyojlariga xizmat qiluvchi kapitalizmning yangi turi” va boshqa shu kabi bir qator kitoblarida ijtimoiy biznes terminiga izohlar berilgan. Bu asarlarida Muhammad Yunus Ijtimoiy biznesni ijtimoiy muammolarga yo’naltirilgan faoliyat sifatida talqin etadi.

3. *Nodavlat, notijorat tashkilotlari yillik daromad to’planishiga sababchi bo’lmaganlaricha ularning faoliyati tadbirkorlik faoliyati deb qaralmaydi. Ular balki yaxshi va ajoyib narsalarni qilishar, yangi va zavqli dasturlar yaratishar, ammo bu innovatsiya, tadbirkorlik emas.*

Nima uchun bu tafovutlar muhim?! Chunki faqatgina yillik daromad to’plash nodavlat, notijorat tashkilotlarining barqarorligini va mustaqilligini ta’minlaydi. Innovatsiya esa 1970-1980 yillardan beri ularning rivojlanishi uchun faqatgina boshlang’ich qurol bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Nodavlat tashkilotlarining zukko menejerlari va hukumat a’zolari shuni anglab yetishdiki, ularning o’zaro bog’liqligi barqaror faoliyat olib borishni kafolatlaydi. Bu aloqadorlik (hamkorlik) esa tabiiy ravishda tadbirkorlik olamiga yetaklaydi. Ko’pdan beri nodavlat, notijorat sektori (uchinchi sektor) tadbirkorlik statusini talab qilishni boshlagan. Shuning uchun ham ayrim tafovutlarni izohlab o’tishni muhim deb topdik.

- “*Tadbirkorlik*” va “*Ijtimoiy tadbirkorlik*” o’rtasidagi farqlar;
- “*Iqtisodiy barqarorlik (hamkorlik)*” va “*Iqtisodiy mustaqillik*” tushunchalari o’rtasidagi farqlar;
- “*Daromad to’plash strategiyasi*” va “*Ijtimoiy maqsadlar biznesi korxonalari*” o’rtasidagi farq;
- “*Innovatorlar*”, “*tadbirkorlar*” va “*professional menejerlar*” o’rtasidagi farqlar.

4. Ijtimoiy tadbirkorlik va uning faoliyati turlari bo’yicha rivojlangan va rivojlanayotgan ayrim mamlakatlar to’plagan tajribalarini iqtisodiy-geografik va mintaqaviy kesimda 4 guruhga bo’lib o’rganish, bizninb fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo’ladi. Ular quyidagilar:

I guruh: *Yevropa Ittifoqi mamlakatlari* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo’yicha to’plagan tajribasi;

II guruh: *Osiyo mamlakatlari* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha to'plagan tajribasi;

III guruh: *AQSH mamlakati* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha to'plagan tajribasi;

IV guruh: *Rossiya mamlakati* iqtisodiyotining ijtimoiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha to'plagan tajribasi.

5. *Inson kapitaliga investitsiyalar* mehnat unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan ixtiyoriy chora, yo'l va qarorlar yig'indisidir. Umumiy mezonlarni hisobga olganda, inson kapitaliga investitsiyalar deganda quyidagi xarajatlar majmui nazarda tutiladi: sog'liqni saqlash, umumiy va maxsus ta'lim, ish qidirish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishga professional tayyorgarlik, migratsiya, bolalarning dunyoga kelishi va tarbiyasi, narxlar va daromadlarga oid iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar kiradi.

6. *O'rta sinf* tushunchasi uzoq tarixga ega va u jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga asoslangan holda takomillashib boradi. Aksariyat adabiyotlarda "o'rta sinf" tushunchasi "yangi o'rta sinf" yoki "yangi o'rta sinflar" terminlari sifatida talqin etiladi. Bizning fikrimizcha, *zamonaviy o'rta sinf* – daromad oladigan mulkka ega kichik tadbirkorlardan iborat bo'lgan yangi ijtimoiy ko'rinishdir.

7. O'zbekistonda tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy rag'batlantirishning asosiy manbai *tijorat banklari* hisoblanadi. Hozirgi kunda tijorat banklari ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatini ochish, uning istiqbolini ta'minlash va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy moliyaviy institut bo'lib xizmat qilmoqda.

8. Mamlakatimiz taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali tadbiq etayotgan qadim va hamisha navqiron *Xorazm viloyatida* ham turli sohalarda rivojlanish va yuksalishlar kuzatilayotgani quvonarli holdir. Viloyatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning chuqurlashtirilishi natijasida aholining banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, ularni ishonchli moliyaviy vositachiga aylantirish uchun zarur

shart-sharoit yaratilgan. Jumladan, viloyatdagi tijorat bank filiallari tomonidan kreditlar ajratish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalarni yo'naltirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

9. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohaning rivojiga katta hissa qo'shayotgan, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgan, eng asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan bandlik darajasi va aholi daromadlarining o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri *kichik biznes va xususiy tadbirkorlik* sohasi hisoblanadi.

10. Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelmoqda. Jumladan:

- a) Ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
- b) Iqtisodiyot innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
- c) Ishlab chiqarish faoliyati yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
- d) Davlat budjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliqlarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
- e) Ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);
- f) Yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakat barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning asosi.

11. Respublikamiz viloyatlarida faoliyat yuritayotgan "uchinchi sektor" hamda davlat organlari vakillariga davlat dasturlari, loyihalarni tayyorlash, amalga oshirish jarayonida ijtimoiy sherikchilikni keng ko'lamda qaror toptirish borasida ularga yaqindan uslubiy ko'mak beradilar. Bugungi kunda joylarda fuqarolarimiz va NNT ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ularni sherik qilib olish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasida kamyob bo'lgan milliy modelimiz imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Magistrlik dissertatsiyasi ishi natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan *amaliy tavsiyalar va takliflar* quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatimizning faol qatlami hisoblangan o'rta sinfni, uning asosiy qismini tashkil qiluvchi kichik tadbirkorlarni, ayniqsa yosh tadbirkorlarni ijtimoiy muammolarga (jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolar, kambag'allik, olkogolizm, uysizlik, ochlik, ekologik muammolar, ichimlik suvi tanqisligi, chaqaloqlar o'limi, giyohvandlik va h.k.lar) jonkuyarlik ruhida tarbiyalash, ularning faoliyatini ijtimoiy muammolarni hal qilishga bevosita yo'naltirish hozirgi zamon ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyotining asosiy mezonini hisoblanadi.

2. NNT tashkilotlarining ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarini moliyaviy ta'minlashda davlat grandlari, subsidiyalar va investitsiyalardan tashqari ijtimoiy tadbirkorlarning daromadlarini keng jalb qilish, ijtimoiy tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda mamlakat tijorat banklarining rolini oshirish kabi chora-tadbirlar tadbirkorlikning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda davlat grandlari, subsidiyalar, investitsiyalar vaqtinchalik, ma'lum bir muddatlarga asoslangan bo'ladi, lekin tadbirkorlarning daromadlari doimiylik xususiyatiga egadir. Bu esa ijtimoiy muammolarga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning doimiy faoliyatini ta'minlaydi.

3. Nodavlat-notijorat tashkilotlari, xususan ijtimoiy tadbirkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, davlat moliyaviy mablag'laridan oqilona foydalanish ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

4. Tadbirkorlarning ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi iqtisodiy savodxonligini oshirish uchun ta'lim muassasalarida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ushbu soha bo'yicha maxsus o'quv kurslari, seminar treninglar tashkil etilishi tadbirkorlar va talabalarning ijtimoiy muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy korxona, ijtimoiy tadbirkor kabi qator iqtisodiy tushunchalar haqidagi intellektual salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

1. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan „Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz“ mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2013. – 10, 30-31, 76 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: 17.01.2015 yil, <http://www.press-service.uz/uz/news/5079/>
3. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi – “Turkiston” gazetasi – 16.01.2016 yil, № 5, 1-5 betlar.
4. Karimov I. A. ”Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. T: ”O'zbekiston”, 2009 yil.

II. Darslik va o'quv qo'llanmalar

5. “Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti” (Akademiklar S. G'ulomov va M. Sharifxo'jayevlarning umumiy tahriri ostida). – T.: ”O'qituvchi”, 2000 yil;
6. Do'stjonov T., Salayev S. ”Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari” – T.: ”Iqtisod-Moliya”, 2006 yil;
7. EMES European Research Network (2006) *Study on Promoting the Role of Social Enterprises in CEE and the CIS*, Initial Overview Study for the UNDP-BRC (Bratislava Regional Centre). www.emes.net

8. Defourny, J. & Nyssens, M. (eds.) (2008) "Social Enterprise in Europe: Recent Trends and Developments", *Working Papers Series*, no. 08/01, Liège: EMES European Research Network. pp. 4-18, 34.
https://orbi.ulg.ac.be/.../1/WP_08_01_SE_WEB.pdf
9. Loss, M. (2003) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Italy", *EMES Working Papers*, no. 03/04.
10. Grégoire, O. (2003) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Belgium", *EMES Working Papers*, no. 03/08.
11. Hulgård, L. (2006) "Danish social enterprises: a public-third sector partnership", in Nyssens, M. (ed.) *Social Enterprise – At the crossroads of market, public policies and civil society*, London and New York: Routledge;
12. Hulgård, L. & Bisballe, T. (2004) "Work Integration Social Enterprises in Denmark", *EMES Working Papers*, no. 04/08.
13. Pättiniemi, P. & Immonen, N. (2002) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: Finland", *EMES Working Papers*, no. 02/10.
14. IFF Research (2005) *A Survey of Social Enterprise across the UK*. London: Small Business Unit.
http://www.cabinetoffice.gov.uk/upload/assets/www.cabinetoffice.gov.uk/third_sector/survey_social_enterprise_across_uk.pdf
15. Spear, R. (2002) "National Profiles of Work Integration Social Enterprises: United Kingdom", *EMES Working Papers*, no. 02/06.
16. Dennis R. Young and Mary Clark Grinsfelder "Social entrepreneurship and the financing of third sector organizations", - *Journal of Public Affairs Education*, №17(4) , 2009; pp. 543-550. [www.naspaa.org>ojs_viewArticle.aspx?articleId=174](http://www.naspaa.org/ojs/viewArticle.aspx?articleId=174)
17. "Towards a Better Understanding of Social Entrepreneurship. Some Important Distinctions", Copyright 2003, Jerr Boschee and Jim McClurg. pp 2-7
<https://www.law.berkeley.edu/php.../fileDL.php?fID>
18. Eight Principles for Non-profit Entrepreneurs by Jerr Boschee.
<http://www.socialent.org/pdfs/8BasicPrinciples.pdf>

19. Borzaga, C. & Defourny, J. (eds) (2001) *The Emergence of Social Enterprise*, London and New York: Routledge (paperback edition: 2004).
20. Borzaga, C. & Spear, R. (2004) *Trends and Challenges for Co-operatives and Social Enterprises in Developed and Transition Countries*, Trento: Edizioni.
21. Campi, S., Defourny, J. & Grégoire, O. (2006) "Work Integration Social Enterprises: Are they Multiple-Goal and Multi-Stakeholder Organizations?" in Nyssens, M. (ed.) *Social Enterprise*, London & New York: Routledge, 29-49.
22. CECOP (2006) *Social enterprises and worker cooperatives: Comparing models of corporate governance and social inclusion*, CECOP European Seminar, Manchester, November 9, 2006.
23. Davister, C., Defourny, J. & Grégoire, O. (2004) "Les entreprises sociales d'insertion dans l'Union Européenne: un aperçu général", *Revue des Etudes Coopératives, Mutualistes et Associatives RECMA*, no 293, pp. 24-50. (English and French versions published in the *EMES Working Papers Series*: www.emes.net)
24. Dees, J. G. (1998) "The Meaning of Social Entrepreneurship", Stanford University, miméo. Dees, J. G. & Anderson, B.B. (2006) "Framing a Theory of Social Entrepreneurship: Building on Two Schools of Practice and Thought" in *Research on Social Entrepreneurship*, ARNOVA Occasional Paper Series, vol.1, no 3, 39-66.
25. EMES European Research Network (upcoming) "The third sector in Europe: An overview of images, concepts and recent trends", *Working Papers Series*, no. 08/02, Liege: EMES European Research Network.
26. China Social Entrepreneur Report, 2012, pp 9-12, 20. www.bsr.org/reports/FYSE_China_Social_Enterprise_Report_2012.PDF
27. Stacey M. Childress, Steven Barr, Kevin Johnson, Wendy Kopp, Michelle Rhee – The Role of Social Entrepreneurship in Transforming U.S.A. Public Education, 2008, pp 2-3. www.hbs.edu/.../the-role-of-social-entrepreneurship-in-transforming-usa-public-education-1.htm

- 28.** Dr. Natalia Pochinok, Rector Russian State Social University – Training of social entrepreneurs in Russia, 2015, pp 3-5. sewf2015.org/wp-content/uploads/.../W9_Pochinok.pdf
- 29.** S. Salayev, N. Fayzullayev, J. Atayev, D. Saidov, M. Gulmonov – „Tadbirkorlik asoslari“ o’quv qo’llanmasi. – T.: „Fan va texnologiya“, 2012. – 3, 8, 12-18, 30, 159-163, 174-175 betlar.
- 30.** Y. Abdullayev, F. Karimov – „Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari“ o’quv qo’llanmasi (1-qism). – T.: „Mehnat“, 2000. – 8-11 betlar.
- 31.** A. O’lmasov, A.Vahobov – „Iqtisodiy nazariyasi“, 2014 yil, 380-383, 394-397, 414-416 betlar.
- 32.** Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo’rayev – “Iqtisodiyot nazariyasi”, Toshkent – “Moliya”, 2002 yil, 371-374 betlar.
- 33.** „O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2011 yillar) asosiy tendensiyalari va ko’rsatkichlari hamda 2012-2015 yillarga mo’ljallangan prognozlari“ statistik to’plami. – T.: „O’zbekiston“ – 2013. – 21, 25, 113, 122 betlar.
- 34.** “Falsafa” ensiklopedik lug’at. – T.: 2010 yil, 124-126 betlar.
- 35.** X. Shodiyev “Moliya statistikasi”. – Toshkent-2010, 104-bet.
- 36.** O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Xorazm viloyati Bosh boshqarmasining viloyat tijorat banklari tominidan KBXT sohasiga 2015 yilda ajratgan kredit mablag’lari to’g’risidagi ma’lumotlari.
- 37.** ”O’zbekiston raqamlarda” statistik to’plam, Toshkent-2014 y.; 27,39- betlar.
- 38.** ”O’zbekiston raqamlarda” statistik to’plam, Toshkent -2015 y.; 27, 39-betlar.
- 39.** “Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi” loyihasi, Toshkent-2014 y., 138-142 betlar.

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar

- 40.** B.Mardonov – „Aholi bandligini ta'minlash hamda turmush darajasini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati“. „Iqtisodiyot va ta'lim“ ilmiy jurnali, №2, 2012. – 16-b.
- 41.** Y. Xo'janazarov – „Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mehnat bozorini shakllantirishning muhim omili“. „Iqtisodiyot va ta'lim“ ilmiy jurnali, №3, 2012. – 14-b.
- 42.** Y. Xo'janazarov – „Kichik biznes – taraqqiyotimizning muhim omili“. „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy oylik jurnal, №8, 2012. – 17-b.
- 43.** U. Maraimova – „Kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqarish eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish“. „Iqtisodiyot va ta'lim“ ilmiy jurnali, №2, 2012. – 51-b.
- 44.** P.Z. Xoshimov, S.M. Maxmadazizov – „Turmush sifati va ijtimoiy standartlar jamiyatni modernizatsiyalash asosi sifatida“. „Iqtisod va moliya“ ilmiy-amaliy jurnal, №3, 2015. – 70-80 betlar.
- 45.** A. Abdullayev – „Bank likvidligini boshqarishdagi ilmiy-nazariy evolyutsiyasining dolzarb masalalari“. „Birja-Eksport“ ilmiy jurnali, №3, 2013. – 8, 11 betlar.
- 46.** X. Ahmedov – „Tijorat banklarida investitsiyaviy kreditlash asoslari“. „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy oylik jurnali, №1, 2013. – 41-b.
- 47.** „Kichik biznesni kreditlash va moliyalashtirish“. „Biznes konsultant“ iqtisodiy, amaliy-ommabop oylik jurnali, №3, 2012. –19-b.
- 48.** „O'zbekistonda biznesni yuritish xarajatlari“ – „Kredit berish va lizing“. „Biznes konsultant“ iqtisodiy, amaliy-ommabop oylik jurnal, №7-8, 2012. – 47-b.
- 49.** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi Fayzulla Mullajonov – „O'zbekiston bank tizimi: barqaror rivojlanish, xalqaro mezonlarga erishish yo'lida“. „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy oylik jurnali, №1, 2013. – 4-b.

- 50.** F. Dodiyeu – „Banklar – kichik biznes sub’yektlari hamkori“. „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy oylik jurnali, №11(186), 2012. – 59-b.
- 51.** „2012-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2013-yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari“. „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy oylik jurnali, №1, 2013. – 18-19 betlar.
- 52.** Kulmatov A.A. – „Tadbirkorlik kapitali va uni shakllantirish usullari“. „Iqtisod va moliya“ ilmiy-amaliy jurnal, №12, 2014. – 42-44 betlar.
- 53.** Y. To’rayev „Xorazm viloyati banklari: Bunyodkorlik va taraqqiyot yo’lidagi izchillik“ – „Bozor, Pul va Kredit“ ilmiy-amaliy jurnal, №3, 2013 y.; 17-19, 26-27 betlar.
- 54.** T. Do’stjonov, A. Do’stjonov „Inson kapitalining o’rta sinf va kichik biznesni o’zaro bog’liqlikda rivojlanishiga ta’siri va ahamiyatining oshib borishi“, - „Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari“ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, №2, 2015 yil; 3-6 betlar.
- 55.** D. Junaydullayev „Inson kapitalini rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari (Xorazm viloyati misolida)“, - Эффективное использование социально-экономического потенциала и привлечение новых источников экономического роста – Toshkent-IFMR-2015 y., 56-64 betlar.
- 56.** S. Gulyamov, B. G’ayibnazarov „Mintaqalar modernizatsiyasini amalga oshirishda intellektual kapitalning roli“ – Эффективное использование социально-экономического потенциала и привлечение новых источников экономического роста – Toshkent-IFMR-2015 y., 65-72 betlar.
- 57.** S.K. Salayev, B.U. Tadjiev „Kichik biznesning rivojlanishida Hindiston tajribasi“ – „Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik muammolari“ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, №2, 2015 yil; 6-7 betlar.

58. Rustamova D.D. “Inson kapitaliga investitsiyalar va ularning xususiyatlari” – “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnal, №7, 2014 yil. 33-36 betlar.
59. Rayxanov U.A. “Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvida o’rta sinfning roli” – “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnal, №4, 2013 y., 20, 21, 24, 25 – betlar.
60. S. Gulyamov, B. G’ayibnazarov ”Intellectual salohiyatdan samarali foydalanish – taraqqiyot tayanchi” – ”Iqtisodiyot va ta’lim ” jurnali, №1, 2014 y., 4, 5- betlar.
61. To’rayev A. ”Ijtimoiy sherikchilik amaliyotida dolzarb vazifalar: ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni monitoring qilish metodologiyasi”, “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnal, №10, 2013 y., 38-44 betlar.
62. Зикриллаева Н.А., Тураев А.Т. «Социальное партнерство: формирование средств бюджета ННО и других институтов гражданского общества – важный фактор либерализации экономических отношений и социально-экономического развития», «Экономика и финансы» научно-практический журнал, №4, 2014; ст 18-19.

IV. Internet saytlari

- http://en.wikipedia.org/wiki/Social_entrepreneurship
- http://en.wikipedia.org/wiki/Social_business
- <http://www.socialent.org>
- <http://www.press-service.uz/uz/news/5079/>
- http://www.se-alliance.org/better_understanding.pdf
- <http://www.socialent.org/pdfs/8BasicPrinciples.pdf>
- www.fundngo.parliament.uz//
- www.lex.uz
- Google tezkor qidiruv portali